

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA‘LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqi

UDK

ZARIPOV JAHONGIR GULMURODOVICH

“Fransiya-O‘zbekiston munosabatlari (1991-2014 yy.)”

Mutaxassislik: 5A- 120302- Tarix

(Yo‘nalishlar va mamlakatlari bo‘yicha)

Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

**Tarix fanlari doktori,
professor To‘rayev.H.H.**

Buxoro-2016 y.

Бухоро давлат университети
Тарих кафедрасида бажарилган

Илмий раҳбар

имзо	Илмий даражаси ва унвони, фамилияси исми шарифи
------	---

Расмий оппонент

имзо	Илмий даражаси ва унвони, фамилияси исми шарифи
------	---

Кафедра мудири

имзо	Илмий даражаси ва унвони, фамилияси исми шарифи
------	---

Магистратура бўлими бошлиғи

имзо	Илмий даражаси ва унвони, фамилияси исми шарифи
------	---

Магистрант

имзо	Фамилияси исми шарифи
------	-----------------------

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I.BOB. Fransiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari.....	9
1.1.Amir Temur va temuriylar davrida Fransiya bilan hamkorlik tarixidan.....	9
1.2. Fransiyada Temurshunoslik va uning natijalari.....	13
II.BOB. Fransiya va mustaqil O'zbekiston Respublikasining o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik chorrahalarida.....	19
2.1.Fransiya – O'zbekiston iqtisodiy hamkorligining yutuqlari va tarixiy tajribasi	25
2.2.Ilmiy-texnikaviy sohadagi aloqalar	28
2.3. Madaniy hamkorlik aloqalari	40
III.BOB. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va Fransiya.....	41
3.1. Mustaqil O'zbekistonning BMTga qabul qilinishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rnini.....	41
3.2. O'zbekiston Respublikasining Evropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari.....	56
Xulosa	69
Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati.....	76
Ilovalar	

KIRISH

Tadqiqot mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, O'zbekiston hukumati o'z milliy manfaatlariga mos tashqi siyosat yo'lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish va xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatishga eng dolzarb vazifalardan biri deb qaradi. O'zbekiston tarixida birinchi marta tashqi siyosat asoslari va uning bosh yo'nalishlari qonun yo'li bilan mustaxkamlandi. O'zbekistonning Oliy Kengashi Bayonotlarining birida "Xalqaro hamkorlikning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub'ekti sifatida qatnashadi. Uning asosiy maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol – yarog'lardan holi qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiq o'tkazishga, eng avvalo harbiy kuch qo'llashga yo'l qo'ymaslik, insoniyatning jahonshumul muammolarini hal etishda davlatlar hamkorligi va xalqlar birdamligidan iboratdir... O'zbekiston Respublikasi oldindan hech qanday shart qo'ymagan holda barcha sheriklar bilan bevosita teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi"¹ - deyilgan.

Prezidentimiz O'zbekistonning tashqi siyosati istiqbolini ta'riflab; "O'zbekiston dunyo uchun ochiq, Biz ham dunyoning O'zbekistonga katta qiziqish bilan qarayotganini his etmoqdamiz. Bir paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga, markazga qaram izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi"² – degan fikrlarni O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li asarlarida keltirib o'tgan edilar.

"Xalqaro hamjamiyatda katta aks sado bergan, 2012-yilning sentabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun asosida aynan ana shunday yondashuvlar mujassamdir. Mazkur konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy prinsiplari, strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi va

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. – Т.: "Ўзбекистон", 1995 й. – Б. 67.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: "Ўзбекистон", 1992 й. – Б. 35.

O'zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi.

“O'zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo'lgan o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko'zlagan holda: turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo'lishi haqida; o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishi haqida va o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi haqida; ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi printsiplarini aniq-ravshan bayon etishi xususida Prezident I.A. Karimov: “O'zbekiston mafkuraviy tamoyillar sababli ro'y berayotgan turli to'qnashuvlarga o'zining jalb etilishiga hamda qo'shni davlatlar va hududlar bilan chegaralardagi qurolli mojarolar va keskinlik o'choqlarida mamlakatimizning ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi, yaxshi qo'shnichilikning, yuzaga keladigan nizolarni faqatgina tinch yo'l bilan bartaraf etishning qat'iy tarafdoridir.”³ – degan fikrlarni O'zbekiston yo'li – jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'li asarlarida keltirib o'tganliklarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatida bu konseptsiyaga to'la amal qilmoqda, bu esa tashqi siyosatni ishonchli hamda samarali bo'lishini ta'minlamoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida O'zbekiston tashqi siyosatini ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- 1) tinchilik va havfsizlik uchun kurash;
- 2) umumbashariy muammolarni hal etishda ishtirok etish;
- 3) xalqaro vaziyatlarni sog'lomlashtirish uchun kurash;
- 4) davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada takomillashtirish;
- 5) tashqi siyosatni mafkuradan holi etish asosida davlatlararo munosabatlardagi g'oyaviy kurashdan voz kechish;

³ Каримов И. А. Ўзбекистон йўли – жаҳон ҳамжамиятига қўшилиш йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995 й. – Б. 42.

6) O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini taominlash.

O'zbekiston mustaqillik tufayli umumjahon jarayonlariga qo'shilib bordi. Chunki "mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga erishmog'imiz uchun O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash zarur"⁴.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda O'zbekistonning Frantsiya davlati bilan 1991-2015 yillardagi ilmiy, madaniy hamda iqtisodiy aloqalari batafsil yoritildi. Frantsiya O'zbekiston Respublikasining Evropadagi ishonchli hamkorlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, madaniy, ilmiy – texnikaviy, parlamentlararo va boshqa turli – tuman yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki davrlardanoq muntazam aloqalar olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida o'zaro hamkorlik natijasini tahlil etish, o'rganish kelajakdagi reja va dasturlarni belgilab olish uchun ushbu mavzuni o'rganish va tadqiq etish dolzarb vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai - nazardan olib qaraganda biz tanlagan magistrlik dissertatsiyasi o'ziga xos ahamiyatli mavzulardan bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik dasturlari, O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar va yurtimizning jahon hamjamiyatidagi o'rnining ortib borishida Frantsiya bilan hamkorlik aloqalarining o'rnini masalasi tahlil etiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Biz tanlagan "Frantsiya – O'zbekiston munosabatlari mustaqillik yillari (1991 – 2015 yy)" mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasini yoritishda; O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilib borish jarayonlariga umumiy tavsif berish, endigina milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan Respublikamizning BMT va turli tashkilotlarga kirib borishida Fransiya bilan munosabatlar masalasi, Evropa mamlakatlari bilan turli munosabatlarga kirishishda Fransiyaning o'rnini va roli, O'zbekiston va

⁴ Каримов И. А. Мақсадимиз – тинчлик, барқарорлик, ҳамкорлик. – Т.: "Ўзбекистон", 1995 й. – Б. 27.

Fransiyaning ijtimoiy – iqtisodiy aloqalarining tadrijiy rivojlanib borishi, madaniy – texnikaviy sohalaridagi hamkorlikning yutuqlarini ko'rsatib berishni asosiy maqsadimiz deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, o'z oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

- Mustaqil O'zbekistonning BMT va turli xalqaro tashkilotlarga kirib borishi, jahon hamjamiyatidagi o'z o'rniga ega bo'lishida Fransiya bilan siyosiy munosabatlarning izchil davom etishiga oid ma'lumotlarga umumiy tavsif berish;

- O'zbekistonning Evropa mamlakatlari bilan munosabatlarida Fransiya Respublikasining tutgan o'rnini, shuningdek, Fransiya bilan olib borilayotgan turli jabhalardagi munosabatlarning Evropa davlatlarida qiziqish uyg'otishiga oid fikrlarni tahlil chig'irig'idan o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasi bilan Fransiya davlati o'rtasida olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning chorak asrlik sarhisobi, o'zaro aloqalarning foydali jihatlari, har ikki mamlakatning foydali hamkorlikka oid reja va dasturlari, sayyohlik va turizm, investitsion loyiha kabi masalalarni tahlil etib ilmiy xulosalar chiqarish

- Iqtisodiy aloqalarning o'zagi bo'lgan texnikaviy aloqalar, madaniyat, sport kabi sohalaridagi o'zaro hamkorlikning istiqbollari xususida amaliy xulosalarga kelish; - kabilardan iborat bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning manbashunosligi. Biz tanlagan magistrlik dissertatsiyasining manbashunosligi eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonun loyihalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, farmonlari, qarorlari, O'zbekiston va Fransiya hukumat rahbarlarining bayonotlari, elchixonalar faoliyatiga oid ma'lumotlar, shuningdek, turli xalqaro tashkilotlar, davlat, jamoat arboblari, siyosatchilarning asarlari dissertatsiya mavzusini mazmunan yoritishda manbaviy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng Evropa mamlakatlari jumladan Fransiya bilan zamonaviy iqtisodiy-siyosiy va madaniy hamkorlik aloqalari haqida fikr yuritishda

biz rahbariy adabiyotlar sifatida Prezident I. A. Karimov asarlari, nutqlari, ma'ruzalari, farmonlari va qarorlari,⁵ dan mavzu tarixshunosligining shartli ravishdagi adabiyotlarining birinchi guruhi deb qaradik.

Shartli ravishda ikkinchi guruh adabiyotlariga ushbu mavzuning turli yo'nalishlarida ilmiy asarlar, risola, monografiya, maqola va tezislar chop etgan o'zbek olimlari, jamoat va siyosat arboblari A. Azizxo'jaev, R. Hakimov, A. Kasimov, I. Vaskin, M. Lafasov, X. Murodov, N. Muxammadiev, G. Jamolov, A.X. Saidov⁶ kabilarning ishlarini kiritishni lozim deb topdik.

Biz tanlagan magistrlik dissertatsiya mavzusiga oid uchinchi guruh adabiyotlar sirasiga O'zbekiston – Fransiya hamkorligiga oid asarlar yozgan xorijlik olimlar, siyosatchilar va jamiyat arboblari asarlarini kiritishni lozim deb hisoblaymiz ushbu guruhdagi adabiyotlardan M. Yu. Tixomirov, F. Mayor, L. Keren, X. Xukhem⁷ va boshqalarning asarlarini alohida keltirib o'tishni lozim deb hisoblaymiz.

Biz tanlangan magistrlik dissertatsiyasini mazmunan yoritishda internet materiallaridan ham atroflicha foydalanishga harakat qildik. Internet ma'lumotlari asosan O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi veb – sahifasi, Birlashgan millatlar tashkilotning veb – sahifasi, YuNESKOning veb – sahifasi, O'zbekiston Respublikasi hukumat portali, O'zbekiston – Frantsiya elchixonalari veb – sahifalaridan imkoniyat darajasida foydalanishga harakat qildik⁸.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т., «Ўзбекистон», 1992. 78 б., Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т., «Ўзбекистон», 1994. 299 б., Каримов И.А. Мақсадимиз – тинчлик, барқарорлик, ҳамкорлик. Т., «Ўзбекистон», 1995. 45 б., Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т., «Ўзбекистон», 1995. 176 б., Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1, Т., «Ўзбекистон», 1996. 261 б., Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3, Т., «Ўзбекистон», 1996. 366 б., Каримов И.А. Бунёдкорлик ёлидан. Т.4, Т., «Ўзбекистон», 1996. 349 б., Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т.5, Т., «Ўзбекистон», 1997. 384 б., Каримов И.А. Ўзбекистон ХХИ аср бо'саҳасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997. 326 б., Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т., «Ўзбекистон», 1998. 686 б., Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ., Т., «Шарқ», 1998. 31 б., Каримов И.А. Маънавий юксалиш ёлида. Т., Ўзбекистон», 1998. 480 б., Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, еркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т., «Ўзбекистон», 2000. 112 б.

⁶ Демократия халқ ҳокимияти демакдир. – Т.: “Ўзбекистон” 1996., Ўзбекистон ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва саноат нашриёти, 2001., Основные направления внешней политики Республики Узбекистан". – Т., 1994., Ўзбекистон Республикасининг халқаро алоқалари. – Т., 1995., Ўзбекистон Республикасининг халқаро алоқалари. – Т., 1995., Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Тўплам / Ўзбекча нашри – Тошкент: Адолат, 2004., Юридическая энциклопедия. –М.: 1998.

⁷ Хилда Хукэм Властитель семи звезд Т. “Адолат” 1994-год 320 стр.

⁸ www.mfa.uz, www.yn.org, www.tashkent.unesco.org, www.gov.uz, www.ambafrance-uz.org.

Biroq shuni ta'kidlash lozimki, mazkur mavzu O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish va olib borayotgan tashqi aloqalari haqidaligi sababli, yuqoridagi manba va adabiyotlarda faqat muammoga oid aniq ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu ma'lumotlarning barchasi turli axborot vositalarida deyarli hisobot sifatida berilgan. Mazkur magistrlik dissertatsiyamizda O'zbekiston Respublikasining Fransiya davlati bilan 1991-2015 yillardagi hamkorlik aloqalari tarixi analitik tahlili, tarixiy xronologik tartibi, rivojlanib borish tendensiyasi va bu rivojlanishda mamlakatimizning o'rni ilmiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy - amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasining nazariy - uslubiy va metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari va mustaqillik yillarida shakllangan tarix faniga bo'lgan yangicha haqqoniylik, adolatlilik va printsiptialilik qarashlari bilan belgilanadi. Yurtboshimiz I. A. Karimovning "Tarixga murojat qilar ekanmiz, u xalq hotirasi ekanligini nazarda tutamiz. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmagandek, tarixni bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"⁹, - degan so'zlari mavzuni yoritishdagi asosiy metodologik omil bo'ldi.

Magistrlik dissertatsiyasining o'zbek tilida yozilganligi, O'zbekiston – Fransiya munosabatlari tarixini o'rganuvchi o'quvchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot ishidan akademik litsey va kasb hunar kollejlari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari professor - o'qituvchilari darslarda ayrim mavzularni yoritishda qo'shimcha materiallar sifatida foydalanishlari mumkin. Talabalar esa, mazkur ilmiy ish orqali O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, iqtisodiy taraqqiyot masalasi, davlat qurilishi va jamiyatni demokratlashtirish kabi sohalarda Fransiya bilan turli – tuman sohalardagi munosabatlariga oid ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan BuxDU "Ilmiy axborotnomasi" jurnalida 1 ta maqola va Respublika miqiyosidagi ilmiy – nazariy anjumanlarda 2 ta tezis e'lon qilingan.

⁹ Каримов. И. А "Ватан равнаки учун барчамиз масъулмиз". Том 9. Тошкент. 2001. - Б. 13

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, olti band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 80 sahifani tashkil qiladi.

I.BOB. Fransiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari

I.1. Amir Temur va temuriylar davrida Fransiya bilan hamkorlik tarixidan

MAFUZ (fransuz o'zbek arxeologik jamoasi) ning rahbari, taniqli olim Frans Grenening "1995 yilda Afrosiyobda olib borilgan ishlar natijasi", Frederik Bonertuya Bressan xonimning "Nukus muzeyi", Lyusyen Kerening "Zamonaviy Samarqand yilnomasi", Adelaida Lalya-Klchneyaokyayag "Buxoro bozor uning

shahar hayotidagi o‘rni” hamda frantsuz-o‘zbek madaniy hamkorligining turli sohalariga bag‘ishlangan qator maqola va xabarlar joy olgan.¹⁰

Frans Grene, jumladan, o‘tgan yili Afrosiyob hamda Ko‘ktepada fransuz va o‘zbek muzeyshunoslari hamkorligida olib borgan izlanishlar qiziqarli natijalar berganini xabar qiladi. Ayniqsa bu shaharlarning yunon davriga doir nodir ashyolar topilgan bo‘lib, ular hozir diqqat bilan o‘rganilmoqda. “Qidiruvlar natijalari shu yil kuzida nashrga topshiriladigan “Samarqand qazilmalari I” nomida umumiy hisobotdan joy oladi”, - deya yakunlaydi o‘z maqolasini Frans Grene.

Frederik Bopertui Bressan va Lyuseyn Kerenlarning maqolalarida ham ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Jurnal bulardan tashqari 1995 yil kuzida mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanlar, jumladan, 1-5 oktyabrda Buxoroda o‘tkazilgan “Buxoro va jahon madaniyati” hamda 23-25 oktyabrda IFEAK (Markaziy Osiyoni o‘rganish Frantsuz instituti) tomonidan uyushtirilgan “Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘llari – g‘oyalar yo‘llari” mavzusidagi anjumanlar haqida batafsil ma’lumotlar beradi. Buxorodagi yig‘inlar an’anaviy bo‘lib, uchinchi marta o‘tkazilayotgan bo‘lsa (1992, 1993, 1995) IFEAK ilk marotaba tashkil etgan bu yirik anjumanga o‘zbek olimlaridan tashqari Rossiya, Frantsiya, Shveytsariya, Olmaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Hindistondan vakillar qatnashishdi.¹¹

“Temuriylar” jurnali Frantsiyadagi “Temuriylar tarixi va madaniyatini o‘rganish hamda frantsuz-o‘zbek madaniy aloqalar assotsiatsiyasi” tomonidan nashr etiladi. Jurnalning ilk soni 1989 yili dunyo yuzini ko‘rgan bo‘lib, u asotsiatsiyaning axborot byulliteni hisoblanadi.

Mazkur assotsiatsiya Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ‘ib qiluvchi dunyodagi yagona tashkilot hisoblanadi. Assotsiatsiya xalqimizning yaqin do‘sti, ajoyib inson Fredrik Bopertui-Bressan xonimning

¹⁰ Эрматов.Б. Сохибкироннинг Франциядаги дучтлари “Халк сузи” 1996-йил 12-апрель

¹¹ Эрматов.Б. Сохибкироннинг Франциядаги дучтлари “Халк сузи” 1996-йил 12-апрель

tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, “Temuriy” jurnali ham shu kishining g‘ayrat-shijoati ila nashr etiladi. Bu ishda unga turmush o‘rtog‘i, “Prometey” – Ovrupo istiqboli tadqiqotlari institutining direktori Alber Bressan janoblari ham moddiy, ham ma’naviy yordam beradi.

Assotsiatsiyaning prezidenti taniqli sharqshunos olim Lyusien Kerendir u kishining ismi yurtdoshimizga yaxshi ma’lum – “O‘zbekiston adabiyoti va Kt’ati” haftaligida (1994 yil, aprel) olimning “Amir Temur yoxud Temir xoqon saltanati” tarixiy romanidan boblar bosilgan.

Nafaqat taniqli olimlar va sharqshunoslar balki yurtimiz tarixi va madaniyatiga qiziquvchi ko‘plab oddiy frantsuzlar assotsiatsiya a‘zolaridirlar. Assotsiatsiya rahbarlari orasida hamyurtlarimiz ham bor. Bular Samarqand arxeologik ilmiy-tadqiqot institutining yetakchi olimlari Amriddin Berdimurodov va Temur Shirinovlardir. Ular frantsiyalik arxitektor Manushehr Pessiani bilan birgalikda assotsiatsiyaning vitse prezidentlari hisoblanishadi.

Assotsiatsiyai rahbarlarining hayotlari va faoliyatlari u yoki bu darajada, albatta. O‘zbekiston bilan bog‘liq. Lyusien Keren, jumladan, yurtimizga ilk bora 1961 yilda tashrif buyurgan. Xizmat safarida bo‘lgan olimda Samarqand va ayniqsa, “o‘rni Amir katta taassurot qoldirgan. Shu-shu u kasbiy o‘zgartirib, hayotini Amir Temur tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan. Bu kishining mashaqqatli mehnatlari natijasida “Amir Temur yoxud xoqon saltanati” nomli tarixiy roman, hamda ikki qism, olti pardadan iborat “Amir Temur pessasi dunyoga keldi. Olim Rui Gonsales de Klavixoning “Amir Temur davrida Samarqand safari” nomli kitobini ham frantsuz tiliga tarjima qilgan. 1994 yil oktyabrida L.Keren, F.Boperui Bressan bilan birgalikda Ulug‘bekning 600 yilligi munosabati bilan yurtimizda o‘tkazilgan xalqaro anjuman va tantanalarda ishtirok etdi.

Assotsiatsiyaning bosh kotibi bo‘lmish Fredirik Bopertui Bressan xonimni esa Parijda hamma o‘zbek ayoli deb ataydi. U kishi oddiy uchrashuvlar bo‘lsin, to‘y yoki rasmiy qabul marosimlar bo‘lsin barcha yerda goh xonatlasda tikilgan

ko‘ylak-lozimda, goh Buxorocha ayollar to‘nida paydo bo‘ladi. Bressanlar oilasining Parijning qoq markazida - Eyfel minorasining shundoqqina tagida joylashgan. Xonadonni esa O‘zbekistonimizning Evropadagi bir burchagi, desak bo‘ladi. Bressanlar oilasi nafaqat frantsuzlar balki balki zamonaviy o‘zbeklar nazarida ham kattagina Frederik va Alber Bressanlarning ikki o‘g‘il va ikki qizi bor. O‘tgan yili Bressan xonim “Ulug‘bek shox va munajjim” nomli kitobini ham e‘lon qildilar.

Assotsiatsiya vitseprezidenti Manushehr Pessianining kelib chiqishi Ozarbayjondan. taqdir taqozosi bilan Fransiyada tug‘ilgan. U kishining otasi 1919 yili Bokudan Toshkentga o‘qishga kelgan bo‘lib, o‘sha yili ro‘y bergan aksilinqilobiy isyonda ayblanishdan qochib, Eron orqali Frantsiyaga o‘tib ketgan. M.Pessiani bilan Parijda qilgan suhbatlarimizda u kishining yagona orzusi otalar o‘qigan shaharda bo‘lish ekanini aytgan edilar. Mana, nihoyat orzulari ushalib, Pessiani janoblari o‘tgan yili dekabrda yurtimizga tashrif buyurdilar va nafaqat Toshkentda, balki Termizda ham bo‘lib, u yerda o‘tkazilgan “Baqtriya – Tohariston qadimiy shaharlari madaniyati” mavzusidagi anjumanda ishtirok etib qaytdilar.¹²

O‘z nomidan ko‘rinib turganidek assotsiatsiya frantsuz – o‘zbek madaniy aloqalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bu borada keyingi yillarda amalga oshirilgan qator tadbirlarni aytib o‘tish kifoya. Jumladan, assotsiatsiyaning tashabbusi va yordami bilan 1993 yil noyabr oyida taniqli frantsuz aktyori Fransua Shatto Toshkentga kelib, A.Hidoyatov nomli teatrda “Saddi iskandariy” dostoni asosida Shuhrat Rizaev yozgan senariy bilan Bahodir Yo‘ldoshev sahnalashtirgan “Iskandar” spektaklida Navoiy rolini ijro etdi. Ikki tilda frantsuz va o‘zbek tillarida o‘ynalib, katta muvaffaqiyat qozongan bu spektakl haqida O‘zbekistonda ham Frantsiyada ham ko‘p muvaffaqiyat qozongan bu spektakl haqida O‘zbekiston ham, Frantsiya ham ko‘p yozishadi, ko‘p gapirishadi.

¹² “Темурий” (La temuride) jurnalining 1995-yildagi so‘nggi 15-soni

O'tgan yili sentyabr oylarida o'zbek rejissiori Bahodir Yo'lli Parij shahar teatr Berner Mari Koltesi "Sahroga qaytish" spektaklini sahnalashtirib ishtirok etdi.

"Temuriy" jurnalli qo'limizdagi sonida yozishicha, 1995 yil 23 noyabrda Parijda assotsiatsiyaning umumiy majlisi bo'lib o'tgan. Majlisda masalalar ko'rib, assotsiatsiya rahbarlari o'z lavozimlariga qayta saylanishgan.¹³

I.2.Fransiyada Temurshunoslik va uning natijalari

Amir Temur haqida inglizcha yozilgan asarlarning salmog'i boshqa tillarda yozilganlardan ko'cha ko'proq hisoblanadi. Keyingi yillarda Frantsiyada "Amir Temur" jamiyati faoliyat ko'rsata boshlagani bilan frantsuz tilida ham asarlar ko'paydi. Ovrupoda bobomiz shaxsiyati, davlat boshqaruvi va harbiy faoliyatiga qiziqish XV-XVIII asrlarda ancha kuchaydi va keyinchalik AQShda ham tarqaldi.

O'tgan yilning iyun oyida Italiyada xizmat safarida bo'lganimda, menga Amir Temur yurtidan kelgan kishi sifatida qarab, "Biz sizlarning Buyuk Temuringizni yaxshi bilamiz. U bizni turk sultoni zulmidan qutqargan. U bizni turk sultonn zulmidan qutqargan. Uning yubileyiga taklif qilsangiz albatta boramiz degan edilar. Britaniyaning yangi qomusida (11 jild, 627 bet, 28 jild, 916-917 betlar, 15-nashr, 1987) Amir Temur Markaziy Osiyo, Mesopotamiya, Eroy, Afg'oniston va Hindistonda "Kuchli turk imperiyasini yaratgan" ligi qayd etilgan.

Umuman, o'tan asrlardayoq Angliyada Amir Temur va uning avlodlari haqida yozilgan tarixiy asarlar iiglizchaga tarjima kilingan va bu yurt sharqshunoslari, yozuvchilari sohibqironhaqida ko'pgiia kitob, maqolalar yozganlar. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari "Temurbekning tarixi" iomi bilan 1723 yilda Londonda ikki jild holida frantsuzchadan iiglizchaga tarjima qilinib nashr etilgan. Ibi Arabshohning "Temur tarixidahaqida ajoyibotlari" asari "Buyuk Amir Temur" nomi bilan J. X. Sanders tarjimasida 1936 yilda Londonda nashr qilingan. Xondamirning "Habib us-suyar" asarining V-VI boblari "Temur hayoti" nomi bilan inglizcha tarjimada (tarjimoni noma'lum) Bombeyda 1900 yilda chop etilgan.

^{13 13} "Темурий" (La temuride) jurnalining 1995-yildagi so'nggi 15-soni

Ingliz sharqshunosi S Klark “Buyuk Temurning hayoti” asarini 1676 yilda Londonda nashr ettirgan. Unda Ibi Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiylarning asarlarga murojaat qilingan.¹⁴

Amir Temur tashki aloqalarga katta e'ttibor berib Ispaniya Venetsiya, Xenuya, Angliya, Vizantiya, Frantsiya, Xitoy, Misr kabi davlatlarga elchilar yuborib, yozishmalar orkali iqtisodiy va savdo munosabatlarini yo'lga qo'ygan edi. Frantsiya akademiyasi 1812 yilda maxsus komissiya tuzib, Amir Temurning Karl VI ga yozgan xatini urgangan. Bu komissiya 14 betlik hisoboti Parij kutubxonasida saqlanadi. Uning Angliya qiroli Genrix IV ga yozgan maktubi ham ma'lum. Frantsiya qiroli Karl VI ga yozgan xatida Amir Temur «gashki savdo aloqalari orqali dunyoning gullab-yashnashini» alohida ta'kidlaydi. Uning davrida iqtisod va savdo-sotiq ishlari ancha rivojlanganligini xorijiy tadqiqotchilar ko'rsatib o'tadilar. Frantsuz tarixchisi J. P. Ru “Amir Temur o'zga yurtlarga elchi va vakillar yuborishni uzib qo'ymadi va shu yo'l bilan u uzak davlatlardagi kishilarga tinchlik berdi” deb yozadi.

Amir Temur saltanatida 1403-1406 yillarda Ispaniya elchisi bo'lgan Rui Gonzalez de Klavixoning xotiralari Klemente R. Markxam tarjimasida Londonda 1839 yilda nashr etildi. Bu asar keyincha ikki marta rus tiliga tarjima qilindi (1881, 1990) va nashr etildi.

Klavixoning esdaliklari Ovrupoda keng tarqaldi va undan boshqa mualliflar ham ko'p istifod qilidilar. Xususan, ingliz sayosatchisi va jurnalisti Bamber Gaskoni o'zining “Buyuk mo'g'ullar” rasmiy kitobida (London, 1985) Klavixoning xotiralarni keltiradi. 1398 yil dekabrining boshida Amir Temur Dextliga keladi. Dextli hukmdori Malluxon Amir Temur Dextliga keladi. Dehli hukmdori Malluxon Amir Temur askarlariga qarshi hujum qiladi Bskonli jangda ellik ming jangchisi kurbon buladi. Amir Temur Dextlini zabt etib, u erdan fillar karvoni bilan hind usta me'morlari, fors rassomlari va hattotlarini Samarqandga yuboradi. Klavixo Samarqandda Hindistondan kelgan musofirlarni va “juda bahaybat hayvonni”

¹⁴ Абдузухур Абдулазизов Амир Темур Жахон Назарида “Халк сузи” 1996-йил 12-апрель

(filni) ko‘radi. Bu musofir ustalar Go‘ri Amirni ko‘rishda o‘z me‘morlarimiz bilan birga qatnashganlar.¹⁵

B. Gaskoinning kitobida Amir Temur avlodlari haqida G‘arb sayyohlari yozgan ko‘pgina esdaliklar hamda Hindistonda nashr etilgan Temur va temuriylar haqidagi asarlarning katta ro‘yxati berilgan bo‘lib, ularda ham sohibqiron haqida qiziqarli ma‘lumotlar bor.

Xorijda yozilgan ko‘pgina asarlarda Amir Temurning Chingizxon, Iskandar Zulqarnayn, Yildirim Boyazid va Yuliy Tsezar bilan kiyoslanadi. Bunday asarlar qatorida M. Braunning “Fors adabiyoti tarixi (Kambrij, 1920), S. Skrayn va Denison Rossning “Osiyoning yuragi va Turkiston hamda Markaziy Osiyo xonliklarining tarixi” (London, 1899), D.E. Rossning “Temur va Boyazid” (Leyd, 1940) kabi kitoblar bor. D. Ross ko‘rsatishicha, “Temur yuksak akl-zakovat soxibi, bilimdon sarkarda va Ovrupo uchun xizmatlari buyuk sohibqirondir”.

AQSh sharkshunosi U. Fischel «Ibi Xaldun va Temur Ularning Damashqdagi tarixiy uchrashuvi» nomli kitobinn 1952 yilda Berklidagi Kaliforniya universiteti nashriyotida chop ettirdi. Bu asarda Amir Temur Ibi Xaldunga muruvvat ko‘rsatib, uning mashhur tarixchi bo‘lishiga sababchi bo‘lgani hikoya qilinadi.

Amir Temur istilo qilgan yurtlarida ba’zi asir olinganlarni ozod qilgan. U turk sultoni qo‘lidan ozod etgan uch xristian ayollaridan biri Anjelina elchilar bilan Ispaniyaga qaytib, Sigovi shahrida turmush qurgani va uning avlodlari hozir ham borligihaqida frantsuz muallifi Jan Pol Runing “Jasur Temur” (1991) asarida malumotlar bor.

Yana bir masalani aytib o‘tish joiz. Ba’zi manbalarda Amir Temurning Ispaniyaga yuborgan birinchi elchisi Muhammad Hoji bo‘lgani aytiladi. Leknn boshqa xorijiy mualliflar uning nomu sharifini Muhammad al-Keshiy (Kesh-Shahrisabz) deb ko‘rsatadilar. Yukorida ko‘rsatilgan Jan Pol Runing asarida va B. F. Manzning “Temur saltanatining yuksalishi va boshqaruvi” (Kambrij, 1989)

¹⁵ Абдузухур Абдулазизов Амир Темур Жахон Назарида “Халк сузи” 1996-йил 12-апрель

nomli katta risolada Muxammad al-Keshiy nomi qayd etilgan. Frantsuz tadqiqotchisi Jan Pol Runing yozishicha, Amir Temur davlat va jamiyat, tashqi iqtisodiy va savdo aloqalarni, moliya va harbiy soha yshlarinn yaxshi yo'lga qo'ygan. Ogir ahvolda qolgan savdogarlarga yordam ko'rsatgan va shaxsan o'zi ularga ancha qarz bergan. J. P. Ru yozadi: "Davlatning vazifasi mahsulotni tarqatish tizimini mustahkamlash, o'zining birinchi burchi bo'lgan aholini ta'minlash, adolatli, to'g'ri narx qo'yish va savdo-sotiq makkorliklardan himoya qilishdan iborat edi".

Amir Temurning qashshoqlarga mehru muruvvatini J. P. Ru quyidagicha ifodalaydi: "Turk musulmonlarining oliy maqsadi kambag'allarsiz jamiyat tuzishdan iborat edi. Temur kambag'allik va qashshoqlikni yo'qqilmoqchi bo'ldi: ular uchun yordam berish maqsadida maxsus jamg'arma tuzdi; tekin ovkat tarqatdi va etimxonalarni ko'paytirdi. Barcha yangi bosib olingan viloyatlarda kambag'al qashshoqlarni tekin boqishlari uchun ruxsat berdi".¹⁶

Ma'lumki, mashhur kishilar va hukmdorlarhaqida badiiy asarlar yozish jaxon adabnyotida an'ana tusiga kirgan. Soxibqironhaqida ham xorijiy tillarda o'nlab badiiy asarlar yozilgan, chet el teatrlarida ko'plab tragediya va operalar quyilgan. Ular qatorida mashhur ingliz dramaturgi V. Shekspirning ustози Kristofor Marlning "Amir Temur" tragediyasi (1587- 1588) (o'zbek tiliga Ma'ruf Jalil tarjimasi), Nikolas Rovening "Buyuk Temur" tragediyasi (1702), Edgar Poning "Temur" dostoni (1827), nemis yozuvchisi Kazemir Edshmidning "Sohibqiron"qissasi (1918) va boshqa ko'plab asarlar bor.

1675 yil 3 yanvar kuni Parijda Jak Praden yozgan "Temur yoxud Boyazidning o'limi" spektakli birinchi marta sahnada Jak Pradei yozgan "Temur yoxud Boyazidning o'limi" spektakli birinchi marta sahnagaqo'yilgan.

Keyingi yillarda Fridrix Handelning "Temur operasi", frantsuz yozuvchisi Lyusen Karenning "Amir Temur" nomli 2 qism, 6 pardali pesasi va "Amir Temur

¹⁶ <http://tarix.uz/ozbekiston-tarixi/amir-temur-va-temuriylar/>

yoki Temur xoqon saltanati” romani yaratildi. Yana bir qiziq ma’lumotni kanadalik sharqshunos E. Birnbaum keltiradi. U o’zining “Qo’hna o’zbek adabiyoti va usmonli turklar. XVI asr boshlarida usmonli turk yozuvida ko’chirilgan Alisher Navoiy devoni” asarida yozishicha, Onatoliyalik shoir Ahmadiy (vafoti 1413 yilda) Anqara yaqinidagi jangdan keyin Amir Temur bilan uchrashgan va unga nazmiy turk xalq eposn “Iskandarnoma” ni sovg’a qilgan E. Birnbaum guvohlik berishicha, o’zbek va turk adabiyotlari o’rtasidagi aloqa XV asr boshlarida boshlanib, ayniqsa Alisher Navoiy Sulton Boyazidga o’zining 33 ta g’azalnii yuborganidan keyin yanada rivojlandi.¹⁷ Amir Temur merosining mashxur tadqiqotchisi turk tarixchisi va shoiri Mustafo Ali (1541-1600) o’zining “Mehr va Mox” devonini Alisher Navoiy ta’sirida yozganligini ham tasdiqlaydi. “Mexr va Mox” devonini Alisher Navoiy ta’sirida yozganligini ham tasdiqlaydi. Turk Sultonning buyrug’i bilan Navoiy g’azallariga shoirlar tazkiralar bastaladilar va bu adabiy aloqa keyin ham rivojlandi. AQSh sharqshunosi A.R.Gibbinig “Islom tsivilizatsiyasi bo’yicha tadkikotlar» (Boston,1962) asarida yozishicha, Amir Temurning sharqdagi yurishlari arab, fors va turk tarixchilarn, shoirlari o’rtasida aloqalarning kuchayishiga olib keladi.

AQSh olimi J. Xastings nashr etgan “Din va axloqqomusi”da (Nyu-York, 1985 XII jild, 48 bet) yozilishicha, Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi katta tarixiy ahamiyagga ega bo’ldi va u Ovruponi usmonli turk imperiyasi tomonidan istilo qilinishini qisqa davrga bo’lsa hamto’xtatib qo’ydi. Shu sababli ovrupolik xristian hukmdorlari Amir Temurni o’z xaloskorlari sifatida tan oldilar. U Rossiyani mo’g’il zulmidan ozod qilishda” Kavkaz va Kichik Osiyo mamlakatlarida ham harbiy mahoratini namoyish etganligi e’tirof etiladi. Biroq bu yurtlarning birortasida ham sohibqironning yakka o’zi turg’un bo’lib qolmadn. Har kim o’z yurtiga egalik qilishini istadi. Uning bu oliy himmati doim yuksak qadrlanadi.

¹⁷ <http://samarkandnews.uz/?p=1506>

Amir Temur Ispaniya, Venetsiya, Genuya, Angliya, Vizantiya, Frantsiya Xitoy, Misr kabi davlatlarga elchi yuborib, iqtisodiy va savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘ygan edi.

Sohibqironning Sharqdagi yurishlari arab, fors va turk tarixchilari, shoirlari o‘rtasida aloqalarni kuchayishiga olib keldi.

Keyingi yillarda Fridrix Xandelning “Temur” operasi frantsuz yozuvchisi Lyussen Karenning “Amir Temur” nomli 6 pardali pessasi va “Amir Temur yoki Temur xoqon saltanati” romani yaratildi.¹⁸

II.BOB. O‘zbekiston Respublikasining Fransiya davlati bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari

II.1. Fransiya – O‘zbekiston iqtisodiy hamkorligining yutuqlari va tarixiy tajribasi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach milliy manfaatlarga mos mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Respublikamiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a‘zosiga aylandi.

“O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama faol tashki siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir”¹⁹ deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov. Darhaqiqat, tashki siyosat bobida mustaqillik yangi sahifa ochdi. O‘zbekiston tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng tashabbuskori va faoli sifatida o‘zini namoyon qilmokda.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvida Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini yo‘lga qo‘yish va

¹⁸ <https://daryo.uz/2016/04/07/amir-temur-tavalludining-680-yilligiga-bagishlab-yangi-sayt-yaratildi/>

¹⁹ Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlo, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O‘zbekiston, 1996.B.48

tobora chukurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1996 yil 21 iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi "Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim", uning 1999 yil 1 iyuldan kuchga kirgani mamlakatimizning Evropa Ittifoqi davlatlari bilan o'zaro munosabatlarning huquqiy negiziga aylandi.

O'zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar aloqalari yildan-yilga rivojlanib, chukurlashib bormoqda. Bugungi kungacha respublikamizda Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiya qilindi. Evropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491 ta korxona ishlayapti, ulardan 111 tasi yuz foizlik Evropa kapitaliga ega. 1995-2002 yillarda Evropa Ittifoqi mamlakatlarining firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd. AQSH dollarilik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. O'zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 2002 yilda 1 mlrd. 65,8 mln. AQSH dollarini, 2003 yilda esa 1,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi²⁰.

Fransiya O'zbekistonning Evropadagi muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. 1993 yil 28-30 oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Fransiyaga qilgan tashrifi chog'ida mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga asos solgandi.

O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik "Kredit Kommersian de Frans" banki o'rtasida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta'minlash ko'zda tutildi. Taniqli "Elf-akten" neft-kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga kelishildi. Natijada ushbu zavod 1997 yil 22 avgustda ishga tushdi. Bu-gungi kunda korxona benzin, kerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida 262 mln. AQSH dollari o'zlashtirildi²¹.

²⁰ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. - T.: O'qituvchi, 2008. B.304.

²¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: SHarq, 2000. B.252.

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari yanada rivojlanib bormokda. O'zbekiston Respublikasi tashki ishlar vaziri A.Komilovning 2012 yil oktyabrida Parijga va Fransiya tashki ishlar vaziri L.Fabiusning 2013 yil martda O'zbekistonga tashriflari ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi. Tomonlar o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 8 raundi o'tkazilgan. Oxirgi raund 2013 yilning mart oyida Toshkentda bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida 2008 yildan, Qonunchilik palatasida esa 2010 yildan boshlab parlamentlararo do'stlik guruhleri faoliyat ko'rsatmoqda.

Fransiya Senatida «O'zbekiston -O'rta Osiyo» do'stlik guruhi, Milliy assambleyada esa «Fransiya-O'zbekiston» do'stlik guruhleri faoliyat olib bormoqda.

2008 yil iyunda O'zbekiston Ombudsmani va Fransiya Huquq Himoyachisi o'rtasida hamkorlik bitimi imzolandi.

2012 yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-fransuz tovar aylanmasi hajmi 277,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2013 yilning 9 oyi davomida ushbu ko'rsatkich 254,3 mln. dollarga etdi²².

Fransiyada «Temuriylar davri san'ati va tarixini o'rganish» hamda «Avitsenna-Fransiya» assotsiatsiyalari faoliyat ko'rsatmokda. SHuningdek, Samarqand va Lion, Xiva va Versal, Buxoro va Ruey-Malmezon shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasining Evropada katta iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan Fransiya Respublikasi bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda.

Xususan, ikki tomonlama aloqalar rivojlanishining tamal toshlari O'zRespublikasi Prezidenti I. Karimovning 1993 yil 28 – 30 oktyabr kunlari Fransiyaga davlat tashrifi paytida qo'yildi.

Prezident I. Karimov Fransiya Prezidenti F. Mitteran, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali

²² www.mfa.uz // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

muzokaralar yuritdi. F. Mitteran qabul marosimida nutq soʻzlab: “Hozirgi siyosiy vaziyatda Markaziy Osiyoda yetakchi oʻrinni egallab turgan mustaqil Oʻzbekiston Sharq bilan Gʻarb oʻrtasida ishonchli koʻprik boʻlishi mumkin. Koʻp asrlik tarix teran anʼanalarga ega boʻlgan, insoniyatni faxriga aylangan allomalarni yetkazib bergan Oʻzbekiston doimo fransuzlarning diqqatini tortib kelgan. Bu tashrifdan keyin shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatingiz biz uchun yanada yaqin boʻlib qoldi”²³, deb taʼkidladi. Bu Vatanimiz toʻgʻrisida, uning shon –shuhratini ulugʻlovchi xolisona, oliyjanoblik bilan berilgan bahodir. Safar natijasida Parijda Oʻzbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi oʻrtasida “Doʻstlik va hamkorlik toʻgʻrisida” shartnoma, madaniyat, ilmiy – texnikaviy hamda maorif sohasida hamkorlik qilish toʻgʻrisida bitim, sarmoyalarni oʻzaro ragʻbatlantirish va himoyalash toʻgʻrisida bitim imzoladi.

Mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi Respublikamizda demokratiyaning yanada rivojlanishi, shuningdek, Oʻzbekistonning Evropa boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvi uchun muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Shundan soʻng 1994 yil aprelda Fransiyaning sobiq prezidenti F. Mitteran eng rivojlangan yetti davlat rahbarlari orasida birinchi boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan keldi. Prezident I. Karimovning Fransiya 1996 yil apreldagi ikkinchi tashrifi va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov hamda Fransiya prezidenti Jak Shirakning 1996 yil iyunda Florensiyada Evropa Ittifoqi rahbarlarining sammitidagi, 2002 yil davlat rahbarlarining NATOga aʼzo davlatlar rahbarlarining Pragadagi sammitida uchrashuvlari ikki tomonlama aloqalarni yangi darajaga koʻtarish imkoniyatini berdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1996 yil 21-24 apreldagi ikkinchi tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yangi pogʻonaga koʻtardi. I. Karimovning Fransiya Respublikasi Prezidenti J. Shirak bilan uchrashuvi chogʻida ikki mamlakat oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yanada

²³ Xalq soʻzi // 1993 yil 1 noyabr

rivojlantirish istiqbollari muhokama etildi. Ushbu tashrif davomida Prezidentimiz YUNESKO qarorgohida tashkil qilingan «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'limning rivoji» mavzusidagi ko'rgazmada ishtirok etdi²⁴. Bu uchrashuvlar chog'ida imzolangan turli shartnoma va konvensiyalar hamda turli moliyaviy protokollar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarni kengayib borishiga zamin yaratdi.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasida o'zaro tovar aylanmasi 2003 yilda 72,3 mln. AQSH dollari, shundan eksport 24 mln., import 48,3 mln. dollarni tashkil etdi. Eksportda paxta tolasi 74,4%, to'qimachilik mahsuloti 13,4%, kimyo mahsulotlari 8,8%, agrosanoat majmuasi mahsulotlari 2,9%ni, importda esa elektronika va elektr uskunalar 26,2%, kimyo mahsulotlari 23,3%, mexanika uskunolari 13,7%, farmatsevtika va parfyumeriya mahsulotlari 13,6%, maishiy texnika 7,9%, transport vositalari 5,5%, oziq-ovqat mahsulotlari 3,6%ni tashkil etdi²⁵.

2003 yilda O'zbekistonda Fransiyaning 14 kompaniyasi (jumladan: "Elfakiten" neft – kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqalar) va ikki banki ("Kredi Kommersial de Frans" va "Societe Jeneral") ishladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda 15 qo'shma korxona, 100% fransuz sarmoyasi bilan ikki korxona faoliyat olib boradi. 2004 yilning 14 -16 yanvarida O'zbekiston va Fransiya savdo-iqtisodiy hamkorlik hukumatlararo komissiyasining 2-majlisi bo'lib o'tdi. Ikki davlat hamkorligi rejalariga muvofiq, «Societe Jeneral» bankining kredit hisobiga «Buxoro viloyatida suv ta'minotini yaxshilash» dasturi (8,1 mln. AQSH dollari) amalga oshiriladi va 2 ta «Boing 767-300 EK» samolyoti (187,9 mln. AQSH dollari) sotib olindi²⁶.

O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiya'dagi yirik "Kredit Kommersian de Frans" banki o'rtasida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi

²⁴ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: "O'zbekiston", 1995.B.322.

²⁵ O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: "SHarq", 2000. B.323.

²⁶ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.9. -T.: "O'ME", 2005. B. 324.

qurish loyihasini pul bilan ta'minlash ko'zda tutildi. Taniqli "Elfakiten" neft-kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga kelishildi. Natijada ushbu zavod 1997 yil 22 avgustda ishga tushdi. Bugungi kunda korxona benzin, kerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida 262 mln. AQSH dollari o'zlashtirildi²⁷

Davlatlararo munosabatlarni elchixonalar, vakolatxonalar, konsulxonalar faoliyatisiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu borada O'zbekiston – Fransiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarining bugungi rivojida ikki davlatda faoliyat ko'rsatayotgan elchixonalarning roli beqiyosdir. Parijda O'zbekistonning Fransiya'dagi elchixonasi 1994 yil ochilgan bo'lib, unda bugunni kunga qadar quyidagi shaxslar O'zbekistonning Fransiya'dagi elchisi sifatida faoliyat ko'rsatdilar: Akmal Saidov (1994-1996 yy.), Tohir Mamajonov (1997-2003 yy.), Xamidulla Karomatov (2003-2006 yy.), Ravshan Alimov (2006-2009 yy.), Bahromjon A'loev (2009-2012 yy.), hozirda Ravshan Usmonov faoliyat olib bormoqda.

Toshkent shahrida Fransiya'da O'zbekistondagi elchixonasi 1992 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Elchixonada Jan-Pol' Vezian (1992-1995 yy.), Jan-Klod Rishar (1995-2000 yy.), Jak-Andrey Kostiy (2000-2004 yy.), Jan-Bernar Art (2004-2007 yy.), Xyug Perne (2007-2010 yy.), Fransua Got'e (2010-2013 yy.), 2013 yildan Jak-Anri Ols Fransiyaning O'zbekistondagi elchisi bo'lib faoliyat yuritdilar²⁸.

2008 yil iyunda O'zbekiston Ombudsmani va Fransiya Huquq Himoyachisi o'rtasida hamkorlik bitimi imzolandi.

Fransiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Fransua Gote 2010 yil 10-fevral kuni Tashqi ishlar vazirligida qabul qilindi. Uchrashuvda ikki davlat aloqalarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2011-yilda O'zbekiston va Fransiya

²⁷ O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: "SHarq", 2000. B. 252.

²⁸ http://www.ambafrance-uz.org/Fransiya_va_O'zbekiston_o'rtasidagi_munosabatlar_tarixi

o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 354 mln dollarni tashkil qilgan. Bu 2010-yilgi ko'rsatkichga nisbatan ikki barobardan ko'p.

Uchrashuvda O'zbekiston va Fransiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 20 yilligi munosabati bilan rejalashtirilgan tadbirlarga tayyorgarlik bilan bog'liq masalalar ham muhokama qilindi²⁹

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari yanada rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri A.Komilovning 2012 yil oktyabrida Parijga va Fransiya tashqi ishlar vaziri L.Fabiusning 2013 yil martda O'zbekistonga tashriflari ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi. Tomonlar o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 8 raundi o'tkazilgan. Oxirgi raund 2013 yilning mart oyida Toshkentda bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida 2008 yildan, Qonunchilik palatasida esa 2010 yildan boshlab parlamentlararo do'stlik guruhleri faoliyat ko'rsatmoqda.

Fransiya Senatida «O'zbekiston -O'rta Osiyo» do'stlik guruhi, Milliy assambleyada esa «Fransiya-O'zbekiston» do'stlik guruhleri faoliyat olib bormoqda.

2012 yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-fransuz tovar aylanmasi hajmi 277,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2013 yilning 9 oyi davomida ushbu ko'rsatkich 254,3 mln. dollarga yetdi³⁰.

Fransiyada «Temuriylar davri san'ati va tarixini o'rganish» hamda «Avitsenna-Fransiya» assotsiatsiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, Samarqand va Lion, Xiva va Versal, Buxoro va Ruey-Malmezon shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatildi. Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi bir qator sohalarda, xususan, chorvachilik, vinochilik, nodir metallar, o'simliklar asosidagi yangi dori-darmonlar, neft va gaz mahsulotlari va boshqa sohalarda hamkorlik o'rnatish imkoniyatlarini o'rganmoqda. Toshkent texnika universiteti

²⁹ <http://www.gazeta.uz/uz/2012/02/13/fransiya/>

³⁰ www.mfa.uz // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

bilan Parij universiteti o'rtasidagi hamkorlik haqidagi shartnoma koinotdan olinadigan agrosuratlarni o'rganuvchi o'zbek-fransuz ilmiy markaziga asos bo'ldi.

II.2. Ilmiy-taxnikaviy sohadagi aloqalar

Sharq g'arb, O'zbekiston va Farangiston. Bir qarashda, bu mamlakatlar o'rtasida tarixiy taqdir bobida (shohlar, isyonlar, inqiloblar) yaqinlik, jug'rofiy (janubiy viloyatlarda) o'xshashlik bordek. Biroq boshqa tomondan, o'ziga xos sharqona va harbcha an'analar borasida yer bilan osmoncha farq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Binobarin fransuz-o'zbek xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini, agar mabodo, bir qadar qiyosiy tahlil etganda ham, shuni yaqqol ko'ramizki bu jihatdan ular bir-biridan kam emas. Rable, Paskal, Larashfuko, Stendal, Flober, Mopassan, Sartr, Kamyu va Qoshhariy, Navoiy, Mashrab, Bobur, Ogahiy, Cho'lpon, Qodiriy kabi so'z ustalari, mutafakkirlar ijodi meros bunga guvoh. Bu o'xshashlik, madaniy saviya tufayli, ko'ngil yaqinligi sabab bo'lsa kerak, ushbu mamlakatlar bilan qadim zamonlardan buyon bevosita do'stlik rishtalari bog'langan.

Fransuzlar bobokolonlarimiz jahongir Amir Temurning buyuk xizmatlarini, ayniqsa Ovruponi sulton Boyazid bosqinidan xalos etganligi uchun ham nihoyatda qadrlaydi.

Respublikamiz bilan Fransiya o'rtasidagi ma'naviy-madaniy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashda teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino arboblarning roli katta.

Xususan, 1992-1993 yillarda fransuz rejissyori F.Elmar Toshkentga ikki marta kelib, «Ilhom» teatri sahnasida bir necha tomoshalarni qo'ydi. 1995 yil bahorida jaz ustasi Patrik Sheyder konserti bo'lib o'tdi.

1993 yil 19-22 may Toshkentda Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tashkil etgan «Fransuz matbuoti panoramasi» ko'rgazmasi o'tkazildi.

1998 yil yozida Samarqand delegatsiyasining Lion shahriga tashrifi o`zbek-fransuz madaniy munosabatlarida muhim voqea bo`ldi. Bu tashrif chog`ida «Yer yuzining eng go`zal shahri» bo`lmish Samarqand bilan Fransiyaning sanoat va madaniy markazi sifatida ikkinchi o`rinda turuvchi Lion bundan buyon birodarlashgan shahar bo`ladi, degan qarorga kelindi. Bu yirik o`zbek va fransuz shaharlari o`rtasida madaniyat, ta`lim va iqtisodiyot sohasida yaqin aloqalarning kengayishiga asos bo`ldi. SHunisi diqqatga sazovarki, Parij shahridagi Temuriylar tarixi va madaniyati uyushmasida bo`lib o`tgan uchrashuv chog`ida o`zbek mehmonlariga serbezak nashr - «Samarqandning moviy gumbazlari» suratli albomi sovg`a etildi. Uning muallifi-uyushma bosh kotibi Frederik Bressandning ta`kidlashicha, «faqat taqdimnoma kunigina ushbu kitobdan 9 mingga sotilgan»³¹.

Lion shahriga tashrif chog`ida «Ko`hna Samarqandning afsona va rivoyatlari» deb nomlangan ko`rgazma tashkil etildiki, bu ham o`zbek va fransuz shaharlari o`rtasidagi madaniy aloqalar istiqboliga yorqin misoldir. Tomoshabinlar milliy kiyim, an`anaviy zargarlik taqinchoqlari ustalari asarlari, Samarqandlik musavvir Leon Bure suratlarini behad katta qiziqish bilan tomosha qilishdi. Kelib chiqishi fransuz bo`lgan bu musavvir o`z vatandoshlarini Samarqandga chaqirib, nozik, shoirona mehr-muhabbat yo`g`irilgan asarlari bilan maftun etdi.

Fransiya musiqa shaydolari orasida o`zbekistonlik musiqachilar nomi tobora mashhur bo`lib kelmoqda. 1995 yil Parijda mashhur sozanda Turg'un va Alisher Alimatovlar konserti katta muvaffaqiyat qozondi. «O`zbek milliy ohanglari tomoshabinlarga mohirona ijrosi bilan eng yoqimli taassurot qoldirdi», deb yozgandi bu haqda fransuz matbuoti.

Madaniy hayot ayniqsa jonlanadigan kuz faslida O`zbekistonga Renn shahridan nafis (plastik) raqs san`ati ijrochilari bo`lmish besh nafar qizlar guruhi tashrif buyurdi. Ular o`zbek-fransuz madaniy aloqalari doirasidagi tomoshalardan tashqari , «Sog`lom avlod uchun» jamharmasi dasturi bo`yicha Toshkent,

³¹ Раъно Бобохъжаева Шарк у гарб уй гунлиги: Узбекистон-Франция. Фан ва турмуш 1999 №2 2-6.

Samarqanddagi bir qator bolalar uylari va internatlarida bolalarga o`zlarining jozibali san'atlarini namoyish etishdi.

1998 yil boshlarida mashhur fransuz san'atkori Alen Delon ishtirok etgan kino festivali bo`lib o`tdiki, toshkentliklar uni «Samuray», «Yorqin quyosh ostida», «Yer osti ohanglari», «Janob Klyayn», «Kazanovning qaytishi» kabi yorqin timsollar yaratilgan filmlarini entikib tomosha qilishdi.

1998 yil may oyida mamlakatimizda Fransiya elchixonasida O`zbekiston shaharlari mavzusida respublika Badiiy akademiyasi Rassomlar ijodiy uyushmasining a`zolari rassom Vladimir Ivanyan va sherobodlik haykaltarosh Azamat Xotamov asarlari ko`rgazma-taqdimnomasi bo`lib o`tdi. Asarlar qoldirgan katta haqida elchi janob Jan Per Rishar shunday ruhdagi taqdimnomalar unga ulkan quvonch baxsh etishini ta`kidladi.

Shunday qilib o`zbek-fransuz madaniy aloqalarining rivojlanishi va kengayishiga oid ushbu ayrim misollar O`zbekiston va Fransiya xalqlarining birlarining yuksak ma`naviy qadriyatlariga har tomonlama oshno bo`lish, do`stona munosabatlarini mustahkamlashga intilishlarini ko`rsatadi.

Ushbu bitiruv ishida O`zbekiston va Fransiya davlatlari o`rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarga kengroq to`xtalib o`tishni lozim ko`rdik.

II.3. Madaniy sohadagi aloqalar

Sho`rolar davrida siyosat va iqtisod sohalari bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat javhalarida ham biz «temir parda» ortida kun ko`rishga mahkum etilgan, Amir Temur to`g`risida iliq so`z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda, ya`ni 1987 yil 22 martda Parijda «Temuriylar davri tarixi va san'atini o`rganish va fransuz-o`zbek madaniy hamkorligi Uyushmasi» tuzildi³². Bu uyushmasining asoschilari va rahbarlari professor L.Keren va doimo o`zbekona liboslar kiyib yuradigan Frederik Bopartyus-Bressan xonimdir. SHu xususda F.Bopartyus-Bressan shunday yozadi: Ham baxli tasodif, ham taqdirning

³² Л.Керен. А.Саидов Амир Темур ва Франция. Т. Адолат. 32-бет.

irodasini qarangki, buyuk Temurning buyuk nabirasi asronomiya sultoni Mirzo Uluhbek ham 1394 yilning aynan 22 martida olamga kelgan³³.

Fransiyalik olim M.Pessiani va Samarqand arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutining etakchi olimlari T.Shirinov hamda A.Berdimurodov Uyushma Raisining o`rinbosarlaridir.

Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini tarhib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati va san`ati, Buyuk Ipak yo`lining muhim qismi, Sharq va G`arb madaniyatlarining chorrahasi bo`lmish Markaziy osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan ulkan hissasi bilan keng fransuz ommasini tanishtirishdan iborat. Shu borada muzaffar sarkarda va buyuk davlat arbobi Amir temurdan boshlab uning sulolasining vakillari: falakiyotchi Mirzo Ulug`bek, shoir Husayn Boyqarodan to boburiylargacha barcha-barchalari iste`dodli san`atkor, adib, ziyolilar homiysi, bunyodkor va me`mor bo`lganliklarini Uyushma a`zolari keng targ`ib qiladilar. Buning yorqin misoli sifatida ular Samarqandu Shaxrisabz, Buxoroyu Hirot, Balxu Shimoliy Hindistondagi tengsiz Sharq me`morchilik durdonalarini misol qilib ko`rsatadilar.

Shu maqsadda Uyushma turli temurxonlik kechalari, ilmiy anjumanlar, ko`rgazmalar o`tkazib turadi. Temuriylarning haqiqiy ixlosmandlari bo`lmish Uyushma a`zolari fransuzlarni mashhur tarixiy «Samarqand yo`li»dan borishga, hazrati Amir Temur saltanati poytaxti moviy gumbazlariga maxliyo bo`lishga, sharq Uyhonish davri madaniyati va san`atidan zavqlanishga chorlaydilar.

Bu borada amaliy harakat sifatida 1989 yildan beri Uyushma o`zining «Temuriylar» nomli jurnalni nashr etib kelmoqda.

Uyushma Samarqand arxeologiya instituti olimlari bilan birgalikda «Temuriylar» jurnalining maxsus sonini ilmi nujum (astronomiya) va ilmi

³³ Л.Керен. А.Саидов Амир Темур ва Франция. Т. Адолат. 32-бет.

bashorat (astrologiya) sohibi Mirzo Uluhbek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlab «Uluhbek-astronomiya sultoni» (Parij, 1994) nomi bilan chop etdi. Bu sondan o'rin olgan «Ulug'bek va yulduz burjlari» (F. Bopartyus-Bressan), «Ulug'bek maktabi va uning Usmonlilar Turkiyasi astronomiyasiga qo'shgan hissasi» (L. Keren), «Temuriylar davrida Sharq va G'arb mamlakatlarida astronomiya va astrologiya fanlarining taraqqiysi» (J.-P. Bude), «Uluhbek ibn Shohruh ibn Temur- san'at homiylari» (E. Sime), «Sufizmning Temuriylarga va Ulug'bekka ta'siri» (T. Zarkon), «Astronomiya, san'at va siyosat» (I. Porter) nomli maqolalari sarlavhalarining o'zi yoq Mirzo Ulug'bek ilmiy merosiga bo'lgan qiziqishning naqadar kuchli va har tomonlama ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi – deb yozadi O'zbekistonning Fransiyadagi elchisi A. Saidov.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki-deb yozadi Jan-Patris Bude.- XV asrning o'rtalariga qadar g'arbliklar hisob-kitoblarga asoslangan astronomiya, sharqliklar esa kuzatishlarga asoslangan astronomiya fanini taraqqiy ettirdilar. Marv yoki Samarqand observatoriyalariga qiyoslanishi mumkin bo'lgan inshootlar va sekstant hamda astrolyabiya kabi asboblari esa g'arb mamlakatlarida hali mavjud emas edi... Ulug'bekning yulduzlar jadvali va unga berilgan sharhlar tahlili temuriylar davri olimlari ovropalik hamkasblaridan sezilarli darajada ilgarilab ketganliklari haqidagi fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi³⁴.

Bir so'z bilan aytganda, fransuz olimlari Mirzo Ulug'bek va uning shogirdlari bashariyatga qoldirgan bebaho ilmiy merosga va jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissaga yuqori baho berganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 1996 yilning Amir temur yili deb e'lon qilinishi, YUNESKO qarori bilan Sohibqironning 660 yilligi butun dunyoda keng bayram qilinishi Uyushma faoliyati uchun katta imkoniyatlar ochdi va Uyushma a'zolari «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi» mavzuidagi xalqaro ilmiy anjumanni tayyorlashda faol

³⁴Л.Керен. А.Сайдов. Амир Темур ва Франция. Т. Адолат. 34-бет.

qatnashdilar. Bundan tashqari Uyushma O'zbekiston Respublikasining Fransiya'dagi elchixonasi bilan hamkorlikda taniqli o'zbek rejissyori Bahodir Yo'ldoshev rahbarligidagi ijodiy guruh ishtirokida Parijdagi eng nufuzli teatrlardan biri- «Odeon»-Ovrupe teatrida o'tkaziladigan Temuriylar davri she'riyati va musiqiy kechasini tayyorlashda qatnashdi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlikning rivojlanishida Uyushma o'zining munosib o'rini egallagan.

Fransuz temurshunoslari yaratgan asarlar qatorida professor L.Kerenning kitob va maqolalari alohida o'rin tutadi. Bu taniqli olim bilan Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tarix fanlari doktori R.T.Shamsutdinov ilmiy hamkorlikda bo'lgan. Professor R.T.Shamsutdinovning 1995 yil 29-30 iyulda Fransiya'ga qilgan ilmiy sayohatida professor L.Keren bilan uchrashadi va Amir Temur va temuriylar davri tarixi, madaniyati, san'atiga doir masalalarda o'zaro ilmiy muloqotda bo'ladi. L.Kerenning bevosita ilmiy ijodiga to'xtalishdan avval professor R.T.Shamsutdinov uning tarjimai holi haqida quyidagilarni yozadi: Lyusen Keren 1920 yilda Fransiyaning Strasburg shahrida tavallud topgan. Uning asli mutaxassisligi yershunos-bioximik. 1941-1946 yillarda u Fransiyaning mashhur Paster universitetida stajer va assistent bo'lib ishlagan, 1951 yildan beri Parij universitetining doktori.

L.Keren uzoq yillar davomida fransuz texnikaviy yordami va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi doirasida ekspert va maslahatchi sifatida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida faoliyat ko'rsatgan. 1961 yilda Mirzacho'lni o'zlashtirish paytida birinchi marta O'zbekistonga safar qilgan. Samarqandda sayohatda ham bo'lgan. Bu safar uning hayotidagi burilish nuqtasi bo'ldi. Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bo'lgan qiziqish tufayli u o'z kasbini o'zgartirdi. Bayrut universitetining tarix fakultetida tahsil oldi³⁵.

³⁵ Р.Т.Шамсутдинов “Париж””Соҳибкирон хотираси”(Франция таассуротлари) ”Фан ва турмуш”журнали. 1995 й 11-12 сонлари.

1978 yilda L.Keren «Tamerlan yoxud Temur hoqon saltanati» nomli yirik monografik asarini nashr ettirdi. 1986 yilda bu kitob qayta nashr etildi va keyinchalik bir necha tillarga tarjima qilindi.

Professor L.Kerenning bu mashhur asari universitetimiz professori R.T.Shamsutdinovga 1995 yil 30 iyulida Parijda muallifning dastxadi bilan berilgan unda shunday soʻzlar bitilgan: Professor Rustambek SHamsutdinovga doʻstona his tuyhular bilan amir temur. Uluhbek, Boburdek buyuk zotlarning hayoti, faoliyati va betakror ibratli ishlarini hamkorlikda oʻrganayotganimiz va 1995 yil 30 iyulda Parijdagi juda ham yoqimli uchrashuvimiz haqida esdalik uchun. Parij.L.Keren

Keng mushohadali olim L.Keren mazkur uchrashuvda professor R.T.SHamsutdinovga temuriylar naslidan, Qoʻqon xoni Xudoyorxonning nabirasi Islombek suratini koʻrsatib, Islombek Afhonistonning Fransiyadagi birinchi elchisi boʻlib turgani va u bilan yaqin doʻst boʻlganligi, u haqida «Shohzoda Ismolbek» nomli maqolasi chiqqani aytgan.

Bu ikki olim oʻrtasidagi ushbu ilmiy suhbat natijasida keyinchalik professor R.T.Shamsutdinov Qoʻqon xonlari avlodidan boʻlgan Islombek va avlodlari haqida tadqiqotlar olib bordi va uni keng jamoatchilikka eʼlon qildi.

Oʻz asarlarini yozish jarayonida L.Keren bir necha bor Oʻzbekistonga tashrif buyurib, sohibqiron poytaxti –Samarqandda boʻlgan, oʻzbek olimlari bilan ilmiy muloqotlar qilgan. Muallifning shu koʻp yillik tinimsiz izlanishlari natijasida ilmiy yangilik, manba va maʼlumotlarga boy asarlari vujudga kelgan. L.Keren asarlaridagi Amir Temurning jahon xalqlari tasavvuridagi nodir rasmlari,sohibqironning 1900 yili Parijdagi Umumjahon koʻrgazmasida namoyish etilgan, bugungi kunda esa yoʻqolib ketgan oltin haykalchasi fotosuratlar, tarixiy xaritalar va chizmalar berilgan.

Professor L.Kerenning yirik asarlaridan yana biri «Temur davrida Samarqand yoʻli» (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning «Ipak yoʻli-muloqotlar yoʻli» dasturi doirasida tayyorlangan. Bu kitob Kastiliya elchisi Rui Gonsales de

Klavixo ning Amir Temur saltanati poytaxti Samarqandga safari haqidagi «Kundaliklar»ning ispan tilidan fransuz tiliga izohli tarjimasidir. Bu kitob matbaa ijrosi, minatyura va rangli suratlarga boyligi, ilmiy-tarixiy ma'lumotlarning keng ko'lami bilan boshqa tillarda chop etilgan nashrlardan alohida ajralib turadi³⁶.

L.Keren «Amir Temur» nomli ikki qism, olti pardali pesa ham yaratgan. Bu asarni B.Ermatov o'zbek tiliga tarjima qilgan. L.Kerenning Amir Temur to'hrisidagi Evropa manbalariga doir bir qator maqolalari ham diqqatga sazovordir.

O'zbek kitobxonlari L.Kerenning «Tamerlan yoxud Sohibqiron saltanati» kitobidan ayrim boblar bilan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligining 1994 yil aprel sonlarida hamda «Elchining guvohliklari» maqolasi bilan «Andijonnoma» ro'znomasi, 1995 yil 17 noyabr sonida tanishishga muvaffaq bo'lganlar³⁷. Ular nafaqat olimlar va mutaxassislarda, shu bilan birga o'zbek o'quvchilarining keng ommasida katta qiziqish uyg'otdi.

Professor L.Keren salkam o'ttiz besh yil davomida Amir Temur to'hrisida olib borgan tadqiqotlarning xulosasi sifatida shunday yozadi: «Bir tomonda qattiqqo'l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab himoyasiga oladigan Temur turardi: bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt etuvchi Temur bo'lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bohlar barpo ettiruvchi Temur turadi. Bu murakkab shaxs muarrihlar uchun ham jumboq bo'lib qolmoqda»³⁸.

Professor L.Keren bu xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Buni aynan keltiramiz:

³⁶ А.Саидов Л.Керен Амир Темур ва Франция... 37 бет.

³⁷ Мазкур мақолани профессор Р.Т.Шамсутдинов нашрга тайёрлаган.

³⁸ Ўзбекистон адабиёти ва санъати , 1994 йил 15 апрель.

1901 yildagi qonun asosida ish yuritadigan tashkiliy uyushma. Toshkent Fransuz maktabi, 2001 yil Fransiya Xalq ta'limi vazirligida, maktabgacha va boshlanhich ta'limga teng deb ro'yhatga olingan³⁹.

Diplomli pedagog, xonim Sesel Delatroz maktab direktori vazifasini bajaradi. Direktor maktabning o'quv-pedagog ishlari aynan darslarni tashkil qilish bilan mashg'ul, boshqa qarorlar Uyushma byurosi doimiy majlis yoki Bosh Assambleya tomonidan qabul qilinadi.

Fransiyaning elchisi, Uyushmaning faxriy Prezidenti vazifasida, majlislarda qatnashadi. Maktabning tashkil topishi, O'zbekistonda fransuz hamkorligining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Madaniy tadbirlar va hamkorlik bo'limi, SCAC, maktabga o'zining bebaho pedagogik yordamini ko'rsatyapti.

Uyushma tashkil topgan kun, 1997 yil sentyabridan beri, maktab o'nlab turli millat frankofon o'quvchilarini o'z bag'riga oldi. 2000 yil 32 o'quvchi ro'yhatda bo'lib, ulardan 15 tasi o'zbeklar edi. Shu bilan birgalikda, maktab jamoasi O'zbekistonda yashayotgan fransuz oilalari va frankofonlar farzandlariga bilim berish bilan mashg'ul. To'liq sinflarning soni 16 tadan iborat bo'lib, 12 bosqichli maktabgacha tarbiyadan bitiruvchi sinfgacha bo'lgan ta'limni o'z ichiga oladi. Ular 17 o'qituvchidan iborat yirik jamoa sifatida dars berish bilan mashhuldir. Maktabda fransuz tilidan boshqa, ingliz va ispan tillari ham o'qitiladi. Kunning ikkinchi yarmida maktabdan tashqari: rasm, aykido va raqs singari turli-tuman to'garaklar faoliyat ko'rsatadi. Uyushma, madaniy va sport tadbirlarini ham mablah bilan ta'minlaydi. Yordam sifatida o'zbek o'quvchilariga yakka tartibda kechki darslar ham uyushtirilgan.

O'qish uchun to'lanadigan haq, shahardagi boshqa chet ellik ta'lim muassasalarinikiga nisbatan 2,5 barobar arzon. Hatto, o'zbek oilalarining farzandlariga stipendiyalar tayinlanishi mumkin.

1920 yillardan beri fransuz tili O'zbekistonda yuqori mavqega ega bo'lib kelmoqda. Xalq ta'limi tizimida fransuz tilini o'rganuvchi o'quvchilar va talabalar

³⁹ Ўзбекистондаги маданий. Илмий ва техникавий ҳамкорликнинг 10 йиллиги 1991-2001. Франция элчихонаси махсус журнали Т. 2001.7-бет

soni 450 000dan ortiq. Respublika bo`ylab 4000 o`qituvchi fransuz tilidan dars berayapti.

Fransuz tili o`qituvchilarining katta qismi O`zbekiston jahon tillari universiteti hamdaviloyatlarda (Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Farg`ona va boshqa) universitetlarida tayyorlanadi.

Elchixonada 1994 yildan beri fransuz tili o`qituvchilarini tayyorlashning birinchi bosqichida ishtirok etib. O`zbekistonning asosiy ta`lim muassasalarida 1999 yilgacha 4 fransiyalik mutaxassis fransuz tili o`qituvchisi sifatida, 2000 yil iyundan bir fransuz yosh mutaxassisi Toshkentda va ikki fransuz diplomanti Samarqand va Buxoroda faoliyat ko`rsatdilar.

Til va ta`lim hamkorligi bo`limi yordamida 1991 yildan beri bir qancha seminarlar tashkil qilindi. Bir tomondan bu seminarlarda yangi metodikaga asoslanib, darsliklarni va fransuz tili o`qituvchilarining dars berish texnikasini yangilash, ikkinchidan o`qituvchilarning hozirgi Fransiya to`g`risidagi bilimlarini oshirishni ko`zda tutadi. Hamma malaka oshirish tadbirlari, xalq ta`limi vazirligi, viloyatlar xalq ta`limi boshqarmalari va viloyat xalq ta`limi xodimlarining malakasini oshirish institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil qilinadi. Bunday seminarlar 10 yil davomida 50 marta uyushtirilib, 2500 o`qituvchini o`z ichiga qamrab oldi.⁴⁰

Oliy va O`rta Ta`lim Ko`mak Milliy Markazi (KNUS) bilan o`zaro hamkorlik shartnomasini imzolaganidan so`ng, oliy darajali o`qituvchilar tayyorlovchi institut ishtirokida malaka oshirish kurslari tashkil qilinib, 2000 yil 25 nafar o`qituvchi Fransiyada bo`lishga muyassar bo`ldi.

Fransuz tili o`qitiladigan maktab va universitetlarga ko`p miqdorda fransuz tili darsliklari 10 yilda 15 000 dona tarqatildi⁴¹.

Fransiya elchixonasining universitetlar aro sohasidagi tadbirlari, ikki tomonlama va ko`p tomonlama dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan. Bu hamkorlik faqatgina universitetlar aro almashinuv bo`libgina qolmasdan, o`qish,

⁴⁰ Ўша журнал 8-9-бетлар.

⁴¹ Ахматова Ш. Франция ҳақида. Маърифат 2003 йил 18 октябрь.

malaka oshirish yo`nalishlari, stipendiya va shu bilan birga informatika, ma'lumotlar bilan ta'minlashni, seminar va ko`rgazmalar tashkil qilishni ham qamrab oladi.

Elchixona muvofiqlashtiruvchi universitetlar aro almashunuv dasturiga ko`ra, salkam 1000 o`zbek talabasi, 1992 yildan 2001 yilgacha qisqa muddatli stipendiyalar dasturi bo'yicha, ba'zilar esa Fransiyadagi oliy o`quv yurtlarida to`liq o`qishga muyassar bo`ldilar. Bu muassasalar orasida Brest Oliy Savdo maktabi, Reyn universiteti, Parij-4, Nitssa universiteti, Tuluza-1 universiteti, Tuluza siyosiy o`qishlar instituti, Tuluza-3 universiteti, Parij Konflan me'morchilik maktabi, Grenobl universiteti, parijdagi EHESS , Parij-1 universitetining iqtisod fakulteti, Lil, Strasburg, reyms universitetlari bor.

Shu maqsadda talabalar, o`qituvchilar almashinuvi. Ilmiy ishlarga birgalikda rahbarlik qilish stipendiyalari to`hrisida bir turkum shartnoma protokollariga imzo chekildi. Brest Oliy Savdo Maktabi va toshkent Jahon iqtisodiyot Universiteti o`rtasida 1993 yil, Jahon Iqtisodiyot universiteti o`rtasidagi 1996 yil orasida imzolangan shartnomadir.

Shu bilan birga O`zbekiston Universitetlari rektorlarining Fransiyaga rasmiy tashrifi paytida Tuluzaning IEP, Tuluza-1 universiteti, Parij-4 universitetlari bilan bir qancha yangi shartnomalar tuzdilar.

1997 yildan beri o`zbekistonlik iqtidorli talabalarni «Umid» jamharmasi tomonidan chet ellarda o`qitish dasturi bo'yicha olib borilgan hamkorlik 1997-2001 yillarda 31 o`zbek talabasiga Fransiyada 1 yillik ta'lim olish imkonini berdi.

2001 yilda EKS Marsel universiteti va toshkent Iqtisodiyot universitetlari o`rtasida tuzilgan turizm iqtisodiyoti o`qituvchilarini tayyorlash to`hrisidagi yangi dastur, bu ikki universitetning samarali hamkorligining dalilidir.

2002 yil O`zbekiston **TACIS** |**TEMPUS**| dasturi bo'yicha hamjamiyat mablahidan foydalanish huquqiga ega bo`ladi. 1993 yil **TEMPUS** tuzilgandan beri hammasi bo`lib, uning ikki loyihasi amalga oshdi. 1997-1999 yillarda birinchi hamkorlik Ren-2 Universiteti va Toshkent Davlat Universitetining tarix fakulteti o`rtasida, ikkinchisi, turizm iqtisodiyotiga aloqador bo`lib, 1998-2000 yillarda

Grenobl-2 universiteti, Buxoro Davlat Universiteti, Toronto va Limerik universitetlarining birgalikla ishlash imkonini beradi.

SOROS dasturi ko'p tomonlama hamkorlikning ikkinchi bo'lagidir. 2001 yilda elchixona vositachiligida va Ochiq Jamiyat Instituti (hamda **SOROS** jamharmasi) Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 7 o'zbekistonlik tanlab olindi va hamkorlikda ish boshladi. **SOROS** stipendiyalarning eng katta qismini to'laydi, Fransiya hukumati esa talabalarning ijtimoiy muhofaza harajatlari to'lashni o'z zimmasiga oladi.

Fransiya-O'zbekiston madaniy, ilmiy sohalaridagi hamkorligida jamiyatlarning o'zni beqiyos. Toshkent shahri Malik Qahhor ko'chasi 46 uyda joylashgan Alyans Fransez nomli jamiyat 1991 yilda tashkil etilgan bo'lib, unga elchixonaning madaniy tadbirlar va hamkorlik bo'limi maslahatchisi va fransuz tili attashesi boshchilik qiladi.

Toshkent Alyansining eng asosiy faoliyati fransuz tiliga o'rgatishdir. 2001 yil 450 talaba yozilib, 3 bosqichda 150 ta talaba o'qidi, til va ta'lim hamkorligi bo'limidan farqli o'laroq, bu darslar nafaqat ta'lim muassasalari o'quvchilariga, balki keng ommaga hamma fanlarni o'rganuvchilarga va turli kasbdagi kattalarga mo'ljallangan.

1996 yil 26 aprelda, Fransiya prezidenti Fransua Mitteranning O'zbekistonga qilgan tashrifi munosabati bilan ochilgan Samarqandda moliyaviy foyda olmaydigan, O'zbekiston qonunlariga buysunadigan Samarqand Alyansi ochildi.⁴²

Fransiya Tashqi Ishlar vazirligi ajratgan mablah tufayli, Alyans bir necha kompyuter, kitoblar, ro'znomalar, darsliklar, rangli jurnallar, fransuz tilidagi ko'rsatuvlarni yo'ldosh orqali qabul qiladigan uskunalariga ega

Fransiya elchixonasining til va ta'lim hamkorligi bo'limi (BCLE)ning asosiy vazifalari quyidagicha:

-Pedagog informatsiyalar (maxsus kutubxonalar, maslahatlar), fransuz tili darsliklarini maktablar va universitetlarga tarqatish (o'n yilda 10 000 darslik tarqatildi);

⁴² Ўзбекистондаги Франция элчихонаси махсус журнали 9-бет

-respublika xalq ta'limi markazi va Versal o'qituvchilar tayyorlash universiteti hamkorligida, O'zbekiston maktablari uchun fransuz tilining yangi darsliklarini yaratishga yordam berish;

-respublikaning turli viloyatlarida fransuz tili o'qituvchilarining malaka oshirish seminarlarini tashkil qilish (10 yilda 50 ta seminar tashkil qilindi).;

-O'zbekistonlik fransuz tili o'qituvchilarining malakasini Fransiyada oshirishni tashkil qilish (bunga ko'ra o'zbekistonlik fransuz tili o'qituvchilaridan 200 nafari Fransiyada malakasini oshirib qaytdi).;

-Fransiyada o'qishni davom ettirishni xohlovchilar uchun amaliy maslahatlar va metodik yordam berish;⁴³

1992 yil Toshkentda Markaziy Osiyoni O'rganish Fransiya Tadqiqot instituti (IFEAC)ning ochilishi O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ilmiy hamkorlikning zolvorli bosqichidir. 1995 yil institut faoliyat yuritib, har yili bin necha doktorlarni, olib kelib tadqiqot ishlari uchun sharoit yaratib bermoqda. Markaziy Osiyoni O'rganish Fransiya Tadqiqot instituti (IFEAC) Toshkentdagi Markaziy Osiyoni o'rganuvchi yagona harb institutidir. Fransiya Tashqi ishlar vazirligi ilmiy salohiyatidan kelib chiqib. Unga Markaziy Osiyodagi birqancha mamlakatlarni ilmiy o'rganish regional vakolatini bergan.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi munosabatlarda madaniy aloqalar muhim rol o'ynaydi. Fransiya elchixonasi madaniy tadbirlar va hamkorlik bo'limi fransuz madaniyatining ravnaqini ta'minlash uchun madaniy hayotning: kino, raqs, teatr, ko'rgazma va musiqa sohalarida ko'zga ko'ringarli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Uning asosiy maqsadlaridan biri, aynan keng xalq ommasiga hozirgi zamonaviy madaniyatni tanishtirish. Haqiqatdan ham o'zbekistonlik madaniyat muxlislari asosan yangiliklarni xush ko'radigan bo'lib, fransuz artistlari bilan yanada ko'proq aloqa o'rnatishga intiladilar. Shu bilan birga elchixona respublikada bir qancha madaniy va badiiy tadbirlar, konsertlar, spektakllar, ko'rgazmalar tashkil qilyapti.

⁴³ Ўзбекистондаги маданий. Илмий ва техникавий ҳамкорликнинг 10 йиллиги 1991-2001. Франция элчихонаси махсус журнали Т. 2001.10-бет

Madaniy tadbirlar va hamkorlik bo'limi va badiiy jamoalar o'rtasida hamkorlik o'zining aniq faoliyati bilan alohida o'ringa ega. Bir tomondan bu bo'lim Fransiya madaniyati vakillari uchun xizmat safarlarini uyutirishda yordam bersa, ikkinchi tomondan Fransiya, konkurslarga, festivallarga qatnashish uchun Fransiya ketayotgan xoreografiya, teatr va musiqa sohasidagi o'zbekistonlik artistlarga iqtisodiy yordam ko'rsatadi. Shuningdek Fransiya elchixonasi har yili o'nlab yosh frankofonlarga yoshlarning xalqaro uchrashuvlari sessiyalarida qatnashish uchun qisqa muddatli stipendiyalar ajratadi. Bu uchrashuvlar Avinon festivali, Po shahridagi Xalqaro uchrashuv, burj bahori, Roshel fransuz tili shaydolari tadbirlari va boshqalar madaniy yoki badiiy xususiyatlarga ega.

1993 yildan boshlab Fransiya-O'zbekiston davlatlari o'rtasida ilmiy aloqalarni qo'llab quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. 1993-2001 yil orasida 7 yosh fransuz mutaxassislari: biri hayvonlar biologiyasi va zoologiyasi bo'yicha buxoroda. 2 tasi Toshkentda va 4ta tadqiqotchi Astronomiya institutida faoliyat ko'rsatmoqda⁴⁴.

quyoshni kuzatish uchun mo'ljallangan IRIS markazi Nitssa universiteti hamda Kot d. Azyur observatoriyasining professori Erik Fossa tomonidan yo'lga qo'yildi.

Geologiya va geofizika sohasida hamkorlik 1997 yilda elchixonaning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi tufayli Reyms Universiteti Zonal Geografiya laboratoriyasi ma'sullarining bir necha tashrifi bilan amalga oshirildi.

Matematika sohasida hamkorlik alohida o'rin egallaydi. Ot Alzas universiteti va Toshkent matematika instituti o'rtasida hamkorlik mevasi O'zbekiston va Fransiya o'rtasida kolokvium bo'ldi.

⁴⁴ Ўзбекистондаги маданий. Илмий ва техникавий ҳамкорликнинг 10 йиллиги 1991-2001. Франция элчихонаси махсус журнали Т. 2001.14-бет

Materiallar fizikasi bo'yicha Toshkent Materiallar Fizikasi Instituti va Lion Milliy instituti o'rtasida ilmiy almashuv maqsadida 1996 yilda Eks an Provansda materiallar buyicha konferensiya bo'ldi⁴⁵.

III.BOB. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va Fransiya.

⁴⁵ Ўша журнал 26-бет.

III.1. Mustaqil O‘zbekistonning BMTga qabul qilinishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlardan muhimi uning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olganidir. 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Qonun»da O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi yo‘li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan unda: «Xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub’ekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yaroqlardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslikdan iborat»⁴⁶, - deb qayd qilindi.

Oradan ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bu yo‘l yana bir bor ta’kidlanib davlatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari qonun bilan mustahkamlab qo‘yildi. «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tinchligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va me’yorlariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin»⁴⁷, - deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida.

Mamlakat tashqi siyosatiga doir bunday qoidalar Prezident I.A.Karimovning nutq, maqola va risolalarida yanada oydinlashtirildi. U o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida: «O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga

⁴⁶ Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Инсон ҳуқуқлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997, -76.

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Т.: Ўзбекистон, 2003, -36.

oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir»⁴⁸, - deb ta'kidlab o'tilgan.

Hukumatimiz o'zining tashqi siyosatida mana shu ko'rsatmalarga amal qilib keldi. O'zbekistonning tashqi siyosat borasida tutgan yo'li davlatimiz biron bir buyuk davlat ta'sir doirasiga tushib qolmasligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va mezonlariga asoslanadi.

1992 yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi bor jahon hamjamiyatining teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoliciga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rta qo'ydi.

O'zbekiston Prezidentining asosli mulohazalari bu nufuzli tashkilot tomonidan inobatga olinib, 1993 yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ta'sis etilib, ish boshladi. Xolid Malik BMTning O'zbekiston dagi vakili qilib yuborildi.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BMTning Taraqqiyot Dasturi, Sanoat taraqqiyoti Dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha vakillari Oliy Komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha Dastur, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

⁴⁸И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Т.: Ўзбекистон, 1993, -76.

O'zbekiston 1992 yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (YXHT) a'zo bo'lib kirdi. I.A.Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, nutq so'zlashi va uning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekiston ning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning xalqaro miqyosda tinchliksevar siyosat o'tkazishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. 1993-yil sentabrda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ishtiroki va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi⁴⁹.

O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi. Bo'lg'usi jahon Parlamentining timsoli bo'lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi.

Mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqning 93 va 94-konferensiyalarida hamda YXHT Parlament Assambleyasining har yili o'tkaziladigan sessiyasida muntazam qatnashmoqda. Oliy Majlis Raisi YXHT Parlament Assambleyasining Vitse-prezidenti etib saylandi. Ana shu va boshqa xalqaro anjumanlarda O'zbekiston vakillari ma'ruza va axborotlar bilan chiqdilar, qator takliflarni o'rtaga tashladilar. Shu tariqa respublika Parlamenti a'zolarining ovozi xalqaro maydonda baralla yangramoqda. Davlatimizning obro'-e'tibori mustahkamlanib, xalqaro miqyosda tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Mustaqillikning ilk damlaridayoq Oliy Majlis Raisi e.X. Xalilovning Avstriya, Germaniya, Ispaniya, SHveysariya, Belgiya, Bolgariya, Pokiston, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa bir qancha mamlakatlarning davlat boshliqlari, parlament va vakolatxonalar boshliqlari bilan uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Oliy Majlisda o'n uchta parlament delegatsiyasi, shu jumladan GFR, Yaponiya, Quvayt, Litva, Latviya,

⁴⁹ Каримов И.А. Президент И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 48-сессиясидаги маърузаси. –Т.: Ўзбекистон, 1993.- 40 б.

Pokiston, Bolgariya va Turkiya mamlakatlarining parlament delegatsiyalari, Shveysariya, Xitoy, GFR va Litvaning rasmiy hukumat delegatsiyalari, turli xalqaro tashkilotlarning o'n uch nafar vakili, xorijiy davlatlarning O'zbekiston dagi elchilari va elchixonalari hamda vakolatxonalari xodimlaridan 28 kishi, shu jumladan, Fransiya, GFR, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya, Pokiston, Turkiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Hindiston namoyandalari qabul qilindi. O'z navbatida O'zbekiston parlamenti a'zolarining delegatsiyalari bir qancha davlatlarda, shu jumladan, AQSH, GFR, Turkiya kabi mamlakatlarda bo'lishdi⁵⁰.

O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar - Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, evropada tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Osiyo va Tinch okean havzasi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Bojxonalar hamkorligi Kengashi, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Qo'mitasi (YUNESKO) va boshqa tashkilotlar a'zosi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ko'plab xalqaro Konvensiyalarga va BMT hamda YXHT kabilarning protokollariga qo'shildi. SHu yillar mobaynida O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida, avvalo, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, YAponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlar bilan o'rnatilgan aloqalar o'z natijalarini bera boshladi. Turkiya bilan abadiy do'stlik shartnomasi O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos yangilikdir⁵¹.

1995 yil 15-16-sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyo Xavfsizlik va Hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar Kengashi bo'ldi. Bu Kengashda

⁵⁰ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. - Т.: Ўзбекистон. 1995. - 65 б.

⁵¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. - Т.: Ўзбекистон. 1995. - 67 б.

ishtirok etish uchun 31 mamlakat, 6 Xalqaro Tashkilotlar vakillari qatnashdilar. Mintaqa xavfsizligi va mojarolarning oldini olish masalalari ko‘rib chiqildi⁵².

1995 yil oktabrda nishonlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 50 yilligi va uning yubiley sessiyasi O‘zbekistonning xalqaro siyosat borasidagi yangidan yangi imkoniyatlarini ko‘rsatishga sharoit yaratdi. Prezident I.A.Karimovning ana shu mo‘tabar minbardan turib so‘zlagan nihoyatda qisqa va lo‘nda nutqi jahon hamjamiyatining tamoyilga aylangan qarashlarini o‘zgartirishga, xalqaro tashkilotlar faoliyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitishga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, u mamlakatlararo, mintaqalararo va qit’alararo munosabatlarni chuqurlashtirish, har bir mintaqada vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishidan oldindan ogoh bo‘lish, ularni o‘z vaqtida o‘rganish va zarur xulosalarga kelish, shu asosda umumbashariy muammolarni chigallashtirmasdan hal etish masalalarini ko‘tardi.

I.A. Karimov asosli va ahamiyati jihatidan dolzarb nutqi zamin va zamon taqdiriga, olam-u odamlar tashvishiga daxldor bo‘lgan har bir siyosiy arbob, har bir davlat rahbari va ayniqsa, xalqaro tashkilotlarning mas’uliyatini oshirish, ularni hushyorlikka chaqirish, olamga sergakroq va ziyrakroq qarash zarurligiga diqqatni qaratadi.

Darhaqiqat, XXI asr har bir davlat rahbarining faqat o‘z mamlakati va xalqi doirasida o‘ylashi kabi hodisalarni unchalik ham xush ko‘rmaydi. Yangi yuz yillik o‘z tabiati va ehtiyojiga ko‘ra endi tor «mahalliy» doiralardan keng dunyoviy maydonga chiqishni, mamlakatning kundalik tashvishlariga o‘ralashib qolmasdan, olam minbarlaridan turib dunyo kengliklariga nazar tashlashni va shu asosda umumbashariy muammolar hamda xalqaro masalalarni hal etishning umuminsoniy va er kurrasining istiqboliga daxldor bo‘lgan keng miqyosli fikrlash tarzini taqozo etadi. Bularning bari yangi dunyoning va yangi yuz yillikning jahon siyosatiga olib kirayotgan g‘oyat insonparvar, hayotiy va ezgulikka tayangan, dunyo siyosatining yangi madaniyat darajasini belgilaydigan omillardir.

⁵² “Халқ сўзи” газетаси, 21 октябр, 1995 йил.

Prezident Islom Karimov dunyoviy jarayonlarni doimiy ravishda kuzatadi. O'lis istiqbolga katta umid va ishonch bilan qaraydi. Ayni paytda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini, ularning kelib chiqish manbalarini ancha oldindan kuzatadi va ularning natijalarini, salbiy yo ijobiy xulosalarini ko'plardan oldinroq ilg'aydi, oldinroq qarorga keladi. Bularning bari uning keng qamrovli tafakkur egasi ekanligini, voqealarga donishmandlik bilan yondashishini yaqqolroq ko'rsatadi⁵³.

O'zbekiston rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida ko'targan dolzarb masalalari butun jahon siyosatdonlari va ulkan davlat arboblari jiddiyoq o'ylashga, masalalar mohiyatini ancha chuqurroq anglashga, yangi asr ostonasida turib, yuz yilliklar ortini yorqinroq va ravshanroq ko'rishga da'vat etayotgani bejiz emas. Prezident I.A.Karimov bu ulkan minbardan turib, birinchidan, davlat arboblari va siyosatdonlar diqqatini milliy xavfsizlik masalasini hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nuqtai nazardan qaytadan ko'rib chiqishga qaratdi. CHunki hozirgacha Xavfsizlik Kengashiga doimiy a'zo bo'lgan besh davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoliciga kirgan 187 davlat tashvishlarini, ularning muammolari va taqdirini hal etishga qodir emasligini, keng dunyoning bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan va hatto bir-biriga zid muammolarining barchasini qamrab olishga kuchi etmasligini, bu keng miqyosli ishga qodir emasligini ko'rsatib berdi. SHuning uchun ham Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolari doirasini, ularning faoliyat maydonini kengaytirish va mazmunini chuqurlashtirish zarur ekanligiga hamjamiyat a'zolarining e'tiborini qaratmoqda. Ana shu kengash a'zoliciga Germaniya va Yaponiya mamlakatlarini ham qo'shish zarurligini aytdi va ularning nomzodini ko'rsatdi⁵⁴.

Haqli savol tug'iladi, «nima uchun aynan shu ikki mamlakat a'zo bo'lishi kerak?» Prezident I.A. Karimov buni aniq dalillar bilan asoslab berdi. Jumladan, YAaponiya fan-texnika taraqqiyoti, jahon siyosatida tutgan o'rni, dunyo

⁵³ Саидов А. Ўзбекистон Республикаси мустақил давлат.- Т.: Ўзбекистон, 1994.- 23 б.

⁵⁴ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб. – Т.: Шарқ, 2011.- 653 б.

rivojlanishidagi mavqeyi, ishlab chiqarish imkoniyatlari va mehnat resurslari jihatidan allaqachon XXI asrga qadam qo'ygani va ana shunday ilg'or davlat dunyo muammolarini hal etishga siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qodir ekanligini ko'rsatib berdi.

Germaniya esa, ikki qarama-qarshi dunyo - Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashganidan so'ng bu mamlakat ijtimoiy-siyosiy muhitida tub sifat o'zgarishi yuz berganida jahon siyosatida ham yangicha, yoqimli «ob-havo» iqlimini yaratgani bilan alohida qadrlanadi. Bu mamlakatdagi mavjud yuksak ishlab chiqarish madaniyatidan tortib, ulkan xalqning ulkan an'analari, jahon taraqqiyotida tutgan o'rni, tobora oshib borayotgan xalqaro obro'-e'tibori, dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining takomillashib borishida qo'shayotgan hissasigacha bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqib baholansa, u ayni Xavfsizlik Kengashiga a'zo bo'lishi kerak ekanligi ko'zga yaqqolroq tashlanadi.

Prezident I.A.Karimov ko'targan ikkinchi masala Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish, uning jahon mamlakatlari taraqqiyotiga qo'shadigan hissasidan kelib chiqib, o'z maqomini kuchaytirish masalasidir. Bosh kotibga ko'proq imkoniyat berilsa, uning dunyoviy muammolarga ko'proq aralashib, samarali ishlashiga sharoit yaratiladi. Masalalarni hal etishda xalqaro tashkilotlar mavqeyini kuchaytirish mamlakatlar o'rtasida paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklarga Bosh kotib ta'sirini kuchaytirish, ularni umuminsoniy va umumjahon manfaatlari tomonga burib yuborishdagi rolini oshiradi. Oila boshlig'i qanchalik katta imkoniyatga ega bo'lsa, moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lsa, siyosiy va huquqiy jihatdan vakolatlari keng bo'lsa, oilada barqarorlik, tinchlik, farovonlik ta'minlanishi shubhasiz. YAgona zamin, yagona makon hammamiz uchun najot maydoni. Uning qaysidir burchagida tutun burqsishi yoki qon to'kilishi boshqa biron-bir burchagida tinchlikni kafolatlay olmasligini chuqurroq anglagan va hammadan oldinroq sezgan Prezident I.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

kotibiga ulkan dunyoviy oila boshlig'iga ana shunday keng imkoniyat berish masalasini ko'ndalang qo'ydi⁵⁵.

Uchinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti olti milliarddan ortiq aholining butun tashvishini nazoratga olishi ancha murakkab ish. Bu osonlik bilan ko'chmaydi. Buning uchun qator mamlakatlararo va mintaqalararo faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar maqomini biroz o'zgartirib, uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish zarur. Ana shunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining umumiy faoliyat maydoni yanada kengayadi, u shug'ullanadigan masalalar konkretlashadi.

Joylarda unga bo'ysunuvchi xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy muammolar va mamlakatlararo munosabatlarda yuz berayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish imkoniyati tug'iladi. BMTning turli mintaqalardagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi vakolatxonalari imkoniyatlarini kengaytirish ularning maqomini oshirish zarurati haqida gapirar ekan, Prezident I. Karimov: «Birlashgan Millatlar Tashkiloti qaerda? Amerikada, Nyu-Yorkda joylashgan. O'zbekiston qaerda? Markaziy Osiyoda! SHuning uchun bu erdagi tashkilotning tarkibi, albatta, kengroq bo'lishi kerak. Unga hali ko'proq huquq berish va iqtisodiy nuqtayi nazardan imkoniyatlarini kengaytirish kerak»⁵⁶

- deydi, O'zbekiston televideniesi muxbiri savollariga javob bera turib.

Ayni paytda turli mintaqalarda, turli doiralarda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ancha-muncha. Jumladan, evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, arab davlatlarida Islom Tashkiloti, Janubiy-SHarqiy Osiyoda Tinch okeani mintaqasi davlatlarining Kengashi faoliyat ko'rsatmoqda.

YAna bir qancha iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy doirada ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlar mavjudki, ana shularning hammasini birlashtirib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish, xalqaro tashkilotlar yagona tizimini vujudga keltirish XXI asr taqdirini belgilaydigan muhim omil ekanligini ko'rsatib berdi.

⁵⁵ Гаффоров Я., Холлиев А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳмжамияти.-Т.: 2003.-56 б.

⁵⁶ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.- Т.: Ўзбекистон, 1996. 48-б.

Albatta, O'zbekiston rahbarining BMT faoliyatini yana ham jonlashtirish, uning er yuzida tinchlikni mustahkamlash va hamkorlikni kuchaytirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflari hamjamiyatga a'zo bo'lgan davlatlarning vakillari orasida katta qiziqish uyg'otdi. Chunki, keyingi paytda BMT tizimida islohotlar o'tkazish lozimligi haqida ko'p gap-so'z bo'layapti-yu, ammo biror bir aniq taklif, asosli rejani hech kim ko'tarib chiqmagan edi. Shu boisdan ham jahonning ko'p mintaqalarida yuz berayotgan qurolli to'qnashuvlarni tugatishda BMTning roli sezilmayapti. Ayniqsa, evropaning markazidagi, Bosniya - Gersogovinadagi qonli fojialarning uzoq davom etishi BMTning nufuzini ancha tushirib yubordi. Ana shu nuqtayi nazardan olganda I.A. Karimovning takliflari katta ahamiyat kasb etdi.

BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil sentabr oyida o'tgan «Mingyillik sammiti»da davlatimiz rahbari xalqaro terrorchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, BMT faoliyati va uning tarkibiy tizimini isloh qilishga doir ko'plab takliflarni bildirdi. Xalqaro jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Orol muammosiga qaratdi. Ta'kidlamoq joizki, Orolidagi vaziyat nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo mamlakatlarining ekologik muammosidir. Shundan kelib chiqqan holda, davlatimiz rahbari «Mingyillik sammiti»da ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, ushbu xayrli ishlarga xalqaro tashkilot va donor mamlakatlardan moliyaviy vositalar jalb etish maqsadida BMTning Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha xalqaro dasturi huzurida Orol va Orolbo'yi muammolari kengashini tuzishni taklif qildi⁵⁷.

evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999-yilgi Istanbul sammitida Prezident Islom Karimov BMT huzurida terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. 2001-yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilishi bu g'oyaning amaliy natijasi bo'ldi.

⁵⁷ “Халқ сўзи” газетаси, 2000 йил, 12-сентябр

O'zbekiston ayni vaqtda BMTning mavjud 12 aksilterror konvensiyasiga hamda narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashga oid konvensiyalariga qo'shilgan. Bu yo'nalishdagi hamkorlikning amaliy ifodasi sifatida 2000-yil 19-20-oktabr kunlari Toshkentda BMT bilan hamkorlikda «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: giyohvand moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda umumiy yondashuv» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazildi⁵⁸.

2006 yilning sentabrida esa Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish to'g'risida»gi shartnomani imzoladilar.

O'zbekiston rahbari Islom Karimov g'oyasining amaliy natijasi bo'lgan bu shartnoma mintaqamizda tinchlikni mustahkamlash va ommaviy qirg'in qurollari tarqalishining oldini olishdagi, pirovardida dunyoda yalpi yadroviy xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimiz BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan turli yo'nalishlarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Bunda davlatimiz rahbari Islom Karimovning xalqaro integratsiyani kuchaytirish, barqarorlikni mustahkamlash va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hamda tinchlikparvarlikka asoslangan izchil siyosati muhim omil bo'lmoqda⁵⁹.

O'zbekiston BMTning 15 ixtisoslashgan tashkilotdan biri – YUNESKOga 1993 yilning 29 oktyabrida a'zo bo'ldi. YUNESKO tarixida ilk bor Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun maxsus dastur ham qabul qilindi. Bu dastur Markaziy Osiyo tadqiqotlarini o'rganish, tiklash va keng targ'ib etishni ko'zda tutadi.

1995 yil 6-noyabr kuni Toshkentdagi «Interkontinental» mehmonxonasining Amir Temur zalida YUNESKO Ijroiya Kengashi 155- sessiyasining yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi.

155-sessiya 19-oktabr kuni Parijda ochilgan edi. Uning asosiy mavzusi «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 50 yilligi, eslamok burchi va hushyorlik

⁵⁸ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. -Т., Ўзбекистон, 2000 йил, 8-жилд, -347б.

⁵⁹ «Ўзбекистон овози» газетаси, 2001 йил, 29 ноябр.

zaruriyati - qullikdan inson qadr-qimmatining tiklanishi sari», deb belgilangan edi. Sessiyada YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan YUNESKO faoliyat dasturlarining bajarilishiga oid hisobot ma'ruzasi va turli tashkiliy masalalardan tashqari, dunyoviy madaniyat ravnaqiga bag'ishlangan uchta hujjat qabul qilinishi mo'ljallangan edi. Birinchi hujjat BMT uchun mo'ljallangan dunyoviy madaniyat haqidagi jamlanma ma'ruza, ikkinchisi - «Dunyoviy madaniyat yo'lida» deb nomlangan sohalararo loyihaning baholanishi haqida edi va ular Parijdagi yig'ilishda qabul qilindi.

Uchinchi hujjat esa O'zbekiston tomonidan taklif qilingan «Dunyoviy madaniyat va YUNESKOning a'zo mamlakatlaridagi faoliyati» deb nomlangan qaror loyihasi bo'ldi.

O'zbekiston hukumatining taklifiga binoan Ijroiya Kengash qarorlari ro'yxatiga kiritilgan bu hujjat loyihasi 155-sessiyaning Toshkentda o'tadigan yakuniy yig'ilishida qabul qilinishi mo'ljallangan edi.

Sessiyaning yakuniy yig'ilishini YUNESKO Ijroiya Kengashi raisi Pal Pataki ochdi. Rais sessiya kun tartibiga O'zbekiston tomonidan kiritilgan hujjatning ahamiyati haqida gapirar ekan, uning dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib qolishini ta'kidladi. Shuningdek, hujjat muhokamasini O'zbekistonda o'tkazish taklifi ko'pchilik tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinganini qayd etdi.

Sessiyada O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh direktori Federiko Mayor sessiyaning yakuniy yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazish taklifini bildirgani uchun Prezident Islom Karimovga anjuman qatnashchilari va tashkilot nomidan minnatdorchilik izhor qildi.

«Men, - deb ta'kidladi o'z so'zida F. Mayor, - O'zbekiston xalqi boshidan kechirayotgan bugungi murakkab o'tish davrida fan va madaniyat, ma'naviyat ravnaqiga qo'shayotgan ulkan xizmatlaringiz uchun Sizga minnatdorchilik

bildiraman. Chunki Siz ma'naviyatni tiklashdagina emas, uni yosh avlodga singdirishda ham katta xizmat qilmoqdasiz»⁶⁰.

F. Mayor YUNESKO faoliyati haqida gapirib, uning tinchlikni saqlashda fan, ta'lim va madaniyatni asos qilib olgani O'zbekiston hukumati olib borayotgan siyosat bilan hamohang ekaniga e'tibor qaratdi. Prezident Islom Karimovning «Biz kelajakning poydevorini qo'ymoqdamiz»⁶¹, degan so'zlarini esladi va bunga misol qilib O'zbekistonda ta'lim, fan va ma'naviyat sohasida erishilgan yutuqlarni keltirdi. O'zbekiston tajribasi dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim bo'g'inlardan biri bo'lishini qayd etdi.

YUNESKO bosh direktori tashkilotning Abu Ali ibn Sino nomidagi oltin medaliga sazovor bo'lgani bilan Islom Karimovni qutladi va oltin medalni O'zbekiston Prezidentiga topshirdi.

YUNESKOning Vatanimizda o'tkazilgan nufuzli xalqaro anjumani ham shu asosiy maqsad yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib qolishi, shubhasiz.

Zotan, ikkinchi jahon urushi olovining tafti hali bosilmagan olis 1945-yilning 16-noyabrida tuzilgan YUNESKO tashkiloti o'shandan buyon ona sayyoramizda tinchlikni saqlash yo'lida samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu yo'lda YUNESKOning asosiy quroli ta'lim, fan va madaniyat sohasida insoniyat aql-zakovati erishgan yutuqlalari dunyo bo'ylab yoyishdan iborat bo'ldi.

Tabiiyki, ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti bo'lgan YUNESKO sessiyasi ishtirokchilarining aksariyati olimlardir. Ular Prezident Islom Karimov kitoblarini o'qib, uni shu mahalgacha faqat nazariyotchi sifatida bilganlarini, endi O'zbekiston bilan tanishib, bu erda o'tkazilayotgan islohotlar va ularning ilk natijalaridan boxabar bo'lib, O'zbekiston Prezidenti faqat nazariyotchi emas, balki izchil amaliyotchi ham ekanligini e'tirof qiladilar.

YUNESKO - O'zbekiston madaniy hayotida yuz berayotgan jarayonlarning faol a'zosi. «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivali, qadimiy shaharlarimiz va buyuk ajdodlarimizning yubiley tadbirlari bu xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda

⁶⁰ Халқ сўзи, 1995 йил 8 ноябрь.

⁶¹ Халқ сўзи, 1995 йил 8 ноябрь.

o‘tkaziladi. Ayniqsa, YUNESKO tashabbusi bilan uning Parijdagi qarargohida 1994 yil Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik tavvallud sanasi, 1996 yil Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosib nishonlanishida bu tashkilotning xizmati katta bo‘ldi⁶². SHuningdek, 1997 yili Xorazm Ma‘mun Akademiyasining 1000, Qarshi shahrining 2700 yillik yubileylari nishonlangani bunga yorqin misoldir⁶³.

O‘zbekiston - BMTning faol a‘zolaridan. Zero, mamlakatimiz butun dunyoda tinchlikni qaror toptirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ko‘plab xayrli ishlarning tashabbuskorlaridandir. Tashkilotning o‘sha paytdagi Bosh kotibi Kofi Annan 2002-yil oktabrida yurtimizga tashrifi chog‘ida O‘zbekistonning jahonda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash borasidagi sa‘y harakatlariga yuqori baho berdi. Bu mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi yuksalib borayotganining yana bir tasdig‘idir⁶⁴.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun 2010- yil, 4—5-aprel kunlari mamlakatimizda bo‘ldi. BMT Bosh kotibi dastlab Nukus shahrida Orolbo‘yi ekologik vaziyatni yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlarga bag‘ishlangan taqdimot marosimida ishtirok etdi. Taqdimot marosimida mintaqadagi ekologik vaziyat haqida batafsil ma‘lumot berildi.

“Mintaqadagi ekologik vaziyatni ko‘zdan kechirib, ahvol o‘ta murakkab ekaniga amin bo‘ldim. Bu butun insoniyatni ogohlikka chorlaydi. Bu global muammoni mintaqadagi barcha davlatlar hamjihatlikda hal etishi lozim⁶⁵”, - dedi Pan Gi Mun.

BMT Bosh kotibi Toshkentdagi Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan ham uchrashdi. Muloqot chog‘ida O‘zbekistonning BMT bilan aloqalari izchil rivojlanib borayotgani, tashkilotning YUNISEF, YUNESKO singari qator tuzilmalari bilan yaqin hamkorlik mamlakatimizning jahondagi nufuzini yanada oshirishga hizmat qilayotgani alohida ta‘kidlandi.

⁶² Каримов И.А. Амир Тему́р хақида сўз. Т., Ўзбекистон. -1996 йил, -86.

⁶³ Мўминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. –Т., 2003.- 21 б.

⁶⁴ Р.Фармонов. Ўзбекистон Республикаси сиёсий тизимининг шаклланиши ва Ғарб тажрибаси.-Т.: ТДПУ, 2004. – 29 б.

⁶⁵ Халқ сўзи, 2010 йил 6 апрель.

Davlatimiz rahbari mehmonni yurtimizga tashrifi bilan qutlar ekan, O'zbekiston mintaqaviy rivojlanishning ko'plab dolzarb yo'nalishlari bo'yicha BMT bilan samarali hamkorlik qilib kelayotganini ta'kidladi. Oqsaroydagi uchrashuvda Pan Gi Mun samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib, BMT O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanini alohida ta'kidladi. BMT Bosh kotibi davlatimiz rahbarining mintaqaviy va xalqaro rivojlanishning dolzarb masalalarini hal etish borasidagi izchil va samarali yondashuviga yuksak baho berdi⁶⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning uchrashuvi yakunida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan SHanxay Hamkorlik Tashkiloti Kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintao 2010-yil 9-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlar tarixi ming yillar qa'ridan boshlanadi. CHoy, paxta, ipak, qog'oz kabi kundalik turmushda hamisha iste'molda bo'lgan mahsulotlarning dunyo bo'ylab tarqalishida Movarounnahr va Chin yurti o'rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar muhim o'rin tutgan.

Xalqaro muammolarni hal etishda Xitoyning nuqtai nazariga alohida e'tibor berilishi BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lgan bu mamlakatning yuksak siyosiy salohiyatidan dalolatdir. Iqtisodiy sohada esa Xitoyning qudrati haqida uning o'sib borayotgan yalpi ichki mahsuloti, tashqi savdo va eksport hajmi bo'yicha etakchi o'nlikka kirishi aniq tasavvur beradi.

III.2. O'zbekiston Respublikasining Evropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlati sifatida geografik jihatdan Evropadan ancha yiroq joylashgan bo'lsa ham, zamonaviy iqtisodiy, siyosiy va

⁶⁶ Рахимов М.А. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии.-Т.: 2011.-34 с.

ijtimoiy munosabatlar natijasida Evropaga va Evropa Ittifoqiga tobora „yaqinlashib“ bormoqda. Evropa Ittifoqi bu hamkorlikka to‘g‘ri baho bergan holda, ayniqsa, 2001 yil 11 sentabrda terrorchilik harakatlaridan keyin O‘zbekistonga nisbatan yangi strategik hamkorlik dasturlari bilan javob bermoqda. Agar yaqin kelajakda Janubiy Kavkazdagi respublikalar Evropa Ittifoqi a‘zosi bo‘ladigan bo‘lsa, u holda Kaspiy dengizi Evropa Ittifoqining sharqiy chegarasini tashkil etadi va Markaziy Osiyo Evropaning bevosita qo‘shnisi bo‘lib qoladi.

Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan munosabatlarning 2001 yil 11 sentabrdan keyin qay darajada o‘zgarganligini o‘rganish jiddiy e‘tiborga sazovordir. Bu vazifani amalga oshirishda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan munosabatini YIning boshqa bir mintaqaga nisbatan bo‘lgan munosabati bilan qiyosiy o‘rganish muhim. Bu o‘rinda biz janubiy Kavkaz respublikalarini mintaqasi sifatida ko‘zda tutmoqdamiz. Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlari qanday asosda qurilgan va hamkorlik qay darajada amalga oshmoqda? Evropa Ittifoqi tomonidan ilgari ham bir necha marotaba Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan hamkorlik loyihalari ishlab chiqildi, lekin bu loyihalar to‘liq amalga oshmadi, ba‘zilari esa hatto qog‘ozda qolib ketdi⁶⁷.

Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan qanday shartnomaviy-huquqiy hujjatlar asosida hamkorlik qilmoqda? Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati qay darajada amalga oshmoqda? Bu siyosat faqat iqtisodiyot mojarolarini bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yo‘nalishlar bilangina cheklanib qolmayaptimikan? SHu narsani ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyoda havfsizlik va barqarorlikni saqlash - Evropa Ittifoqini sharqqa qarab kengaytirish kabi yaqin kelajakdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. U holda yana bir savol tug‘iladi: Barqarorlikni saqlash zarur va muhim ekan, nega endi shu maqsadda Kavkaz davlatlari o‘rtasida barqarorlikni saqlash to‘g‘risidagi bitimga o‘xshash bitimlarni Markaziy Osiyoda ham imzolash mumkin emas? Bu juda ham o‘rinli va maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

⁶⁷ Davlat qurilishi va boshqaruvi. Mualliflar jamoasi. - T.: Akademiya, 2007.

Amerika Qo'shma SHtatlari, Rossiya va Xitoy salohiyatli hamkorlar sifatida o'z mavqe'iga ega. Lekin Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasidagi imkoniyatlari cheklangan deb bo'lmaydi.

Kavkaz davlatlaridan keyin birin-ketin Markaziy Osiyo respublikalari ham Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlarini imzoladilar. Ushbu bitimlar Evropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari uchun umumhuquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Amalda qo'llanilayotgan bitimlar asosida esa Hamkorlik Kengashlari tashkil etildi. Mazkur Hamkorlik Kengashlari tomonidan Evropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning borishi to'g'risida muntazam ravishda anjumanlar o'tkaziladi. Markaziy Osiyo davlatlari Kavkaz davlatlaridan farqli o'laroq, Evropa Ittifoqiga nisbatan munosabatlarda bir hil maqomga ega emas. Kavkazdagi barcha davlatlar Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik bitimini imzolaganlar, ratifikatsiya qilganlar va mazkur bitimlar kuchga kirgan. Bundan tashqari, Kavkaz davlatlari Evropa Ittifoqi kengashida qatnashish huquqiga ega. Bunday hamkorlik bitimlari Qirg'izistonda (01.07. 1999), Qozog'istonda (01.07.1999) va O'zbekistonda (01.07.1999) kuchga kirgan, lekin Turkmanistonda bu hujjat ratifikatsiya arafasida, ammo Tojikistonda bunday bitim imzolanishi hali taklif etilgani

Bitimlarining asosiy maqsadi - siyosiy muloqotga erishish va ushbu dialog yordamida ikki tomonlama siyosiy munosabatlarni o'rnatish, demokratik qadriyatlar va bozor iqtisodiyotini shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yaratishdir. Bitimdagi moddalarda mintaqada iqtisodiy ot sohasida ijobiy natijalarga erishish, qonun chiqarish, moliya, fuqarolik huquqi, ilmfan, texnologiya va madaniyat sohalarida o'zaro hamkorlik qilish belgilab qo'yilgan. Evropa Ittifoqining tashabbusi asosidagi bu hamkorlik dasturlari Markaziy Osiyodagi siyosiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, o'zaro iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi va nihoyat Markaziy Osiyo davlatlari va Evropa Ittifoqi birgalikda ko'proq muvaffaqiyatlarga e'rishadi. Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar Evropa Ittifoqi bilan Kavkaz davlatlari o'rtasidagi munosabatlardan farq qiladi. Chunki Markaziy Osiyo

davlatlari kelajakda Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lishga da'vogar emas. Kavkaz davlatlari esa bunga da'vogar. Shu sababli Markaziy Osiyo mintaqasiga Kavkaz davlatlariga nisbatan kamroq moddiy yordam ajratilgan. Sobiq sovetlar Ittifoqi parchalanib ketganidan keyin Markaziy Osiyoda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy „demodernizatsiya“ jarayoni boshlangan. Mintaqadagi davlatlar hamon o'tish holatidalar, vaholanki ba'zi sobiq Ittifoq davlatlari esa rivojlanish yo'liga o'ta olganlar. Evropa Ittifoqining har bir hamkorlik loyihasi ushbu o'ziga xos shartlarni amalga oshirishni taqozo e'tadi.

2001 yilning 11 sentabridan keyin Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash vazifasini o'z oldiga qo'yganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga AQSH mazkur mintaqaga nisbatan havfsizlikni ta'minlashda „qattiq“ siyosat tarafdori sifatida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, Evropa Ittifoqi esa hafsizlikni ta'minlashda „yumshoq“ siyosat yuritish tarafdori. Evropa Ittifoqining Kavkaz va Markaziy Osiyoda hamkorlik qilish vositasi sifatida asosan uchta dasturi amal qilmoqda, ya'ni: TACIS („Technical Assistance to the Commonwealth of Independent States»), INOGATE („Interstate Oil and Gas Transport to Europe»), TRACECA („Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia»). INOGATE va TRACECA – TACIS dasturining davomi hisoblanadi.

Evropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar SHarqiy Evropa va Markaziy Osiyo uchun mablag' hamda texnik yordam ko'rsatuvchi asosiy donor hisoblanadilar. 1991 yildan 1999 yilgacha bo'lgan muddat ichida sharqiy Evropa va Markaziy Osiyo davlatlari TACIS dasturi orqali 4,226 mlrd. Evro miqdorida bozor iqtisodiyotiga o'tish va demokratiyaning barqaror bo'lishi uchun yordam oldilar. 2000-2006 yillar uchun bu mintaqaga 3,138 mlrd. Evro ajratilgan. Bundan tashqari Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari savdo-sotiq sohasida yaxshi hamkor hisoblanadilar. TACIS-dasturida barcha sobiq sovet ittifoqi respublikalari qatnashadilar. Dasturni amalga oshirishdan asosiy maqsad siyosiy- iqtisodiy jihatdan mazkur davlatlarga o'tish davrida ko'mak berish, demokratik tuzilmalarni barpo etishda yordam ko'rsatish va nihoyat, Markaziy Osiyo davlatlarining jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlashdir. 90-yillarning boshida Kavkaz va

Markaziy Osiyo davlatlari bilan dunyoning boshqa davlatlari o'rtasida ko'plab yuqori darajadagi rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi va natijada ko'plab ikkitomonlama munosabatlar o'rnatildi.

1995 yil dekabr oyida Madridda yuqori darajadagi rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi va aniq siyosiy dastur rivojlantirilishi e'lon qilindi. SHu orqali Evropa Ittifoqi birinchi marta Markaziy Osiyo mintaqasida o'zining geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlari borligini bildirdi. Evropa Ittifoqi uchun bu mintaq o'zining foydali qazilmalari, Evropa va Osiyoni hamda Uzoq SHarqni ham bog'laydigan tarkibiy qism va kelajakda rivojlanish yo'lida beqiyos imkoniyatlarga ega bo'lgan, shu bilan birga xalqaro uyushgan jinoyatchilik uchun (asosan narkotrafik, qurol-yarog' va xalqaro terrorizmning yangi ko'rinishidagi xavf-hatar uchun) katta darvoza sifatidagi vazifasini o'zlari xohlamagan holda bajarmoqda. SHuning uchun mintaqada o'z manfaatlarini boshqa davlatlar ham (Rossiya, AQSH, Xitoy, eron va Turkiya) izlamoqdalar. Mintaqada esa Evropa Ittifoqi bilan yanada ko'proq sohalarda hamkorlik qilish istaklari mavjud. Energiya resurslaridan foydalanish uchun hamkorlik ilish istagi ustivor hisoblanadi. O'zaro hamkorlik bitimlarini imzolashdan ham asosiy maqsad mazkur munosabatlarga huquqiy kuch berishdir.

Johannes Reissner Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro aktyorlarning tutayotgan strategiyasini quyidagicha baholaydi: "Evropaning mazkur mintaqada faoliyati uchun aniq strategiyasi va vositasi ham mavjud emas. AQSH esa bu mintaq uchun aniq va uzoq muddatga mo'jallangan strategiyasini ishlab chiqqan va tegishli vositaga ham ega".

Markaziy Osiyo davlatlarini qo'llab-quvvatlash uchun ushbu davlatlarda qonun chiqarish shakllari, fuqarolik jamiyatini qurish, saylov standartlariga rioya qilish kabi talablar qo'yilgan. Alexander Rahr fikriga ko'ra: "Evropa Ittifoqi o'zining yangi hamkorlaridan g'arbiy Evropadagidek demokratiya modelini qabul qilishlariga umidvor bo'lib, ulardan inson huquqlarini to'liq ta'minlaydigan va ratifikatsiya qilingan shartnomaga amal qilishga majbur e'tmoqda". Muammo shundan iboratki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan Evropa Ittifoqi o'rtasida bir necha shartnoma va bitimlar imzolangan, lekin ularga rioya qilinmayotganligi

tekshiruv va kuzatuvlar natijasida ma'lum bo'lgan. 1999 yil noyabr oyida Istambulda bo'lib o'tgan yuqori darajadagi EXHT anjumanida O'zbekiston va Qozog'iston terrorizmga qarshi keskin kurash maqsadida xalqaro markaz tashkil e'tishni va uning byurosi uchun Toshkentni taklif etdilar. Evropa Ittifoqi davlatlari bu masalada bir qarorga kelgunlaricha buyuk davlatlardan biri bu masalada tashabbusni o'z qo'llariga olishga ulgurdi.³ YIning Markaziy Osiyo masalasida bunday uzoq vaqt biror fikrga kelishi bu mintaqada AQSH o'zining manfaatlarini ta'minlaydigan strategiyasini qabul qilishiga olib keldi.

Xalqaro hamjamiyat (Evropa Ittifoqi ham shu qatorda) O'zbekiston orqali harbiy va gumanitar yordamni 2001 yil 11 sentabrdan keyin Afg'onistonga yo'naltirishni dolzarb va muhim deb hisoblaydi. O'zbekistonning bu masaladagi sa'yi-harakatlari Evropa Ittifoqi tomonidan ham ma'qullandi va bu davlat bilan aloqalar yanada yaxshlandi. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi bayonotida aytilishicha, Afg'onistondagi va unga qo'shni davlatlardagi sharoit terrorizmning tarqalishi, bunga yo'l qo'ymaslik uchun Markaziy Osiyo davlatlari oldida yangi vazifalar mavjud va birgalikda rivojlanishdagi yangi imkoniyatlar yaratilgan⁶⁸.

Ispaniyaning Vazirlar kengashi raisi J.Pique ham Evropa Ittifoqi O'zbekiston va Markaziy Osiyoga yordam ko'rsatish tadbirlarini kelajakda yanada rivojlantirish lozim degan fikrda. Bu fikr Evropa Komissiyasi raisi muovini Catherine Day tomonidan ham ma'qullangan edi.

Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari AQSH ning Afg'onistondagi harbiy harakatlarini qo'llab-quvvatladilar. Bu tadbirlar orqali Evropa Ittifoqi o'zining Markaziy Osiyoda uzoq muddatli hamkorlik qilishda manfaatlarini mavjudligini bildirdi.

Markaziy Osiyoda 2000-2006 yillar uchun TACIS-dasturini davom ettirilishi ham Evropa Ittifoqining mintaqadagi hamkorlik munosabatlarining jiddiyligidan dalolat beradi.

2001 yil 11 sentabrdagi terroristik harakatlardan keyin Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasidagi tutayotgan siyosatiga o'zgarishlar kiritish kerak deb

⁶⁸ www.gov.uz // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

topdi. Germaniya Federativ Respublikasi ushbu siyosiy o'zgarishlarda faol qatnashdi. Islom fundamentalizmining Afg'onistonda faollashuvini, Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishini Markaziy Osiyo davlatlari ham Evropa Ittifoqi ham xohlamasligi Evropa Ittifoqining tashqi siyosatiga o'zgartirishlar kiritdi. Markaziy Osiyo Evropaga jug'rofiy jihatdan uzoq bo'lsada, e'ndi siyosiy jihatdan yaqin bo'lib qoldi.

Evropa Ittifoqining boshqa mintaqaviy etakchi davlatlarga, masalan, AQSH, Xitoy, Eron, Turkiya va Rossiyaga nisbatan hamkorlik darajasi chegaralangan. Lekin YI mintaqada ko'plab dasturlarni amalga oshirmoqda: TACIS, Iste'mol mollarini etkazib berish, Reabilitatsiya, Demokratiya, INOGATE, TRACECA, Atrof-muhitni muhofaza qilish, Yadroviy va narkotik moddalarga qarshi kurash dasturlari va boshqalar.

2003 yilning yanvar oyida Evropa Ittifoqi tomonidan O'zbekistonning mintaqadagi boshqa qo'shni davlatlar bilan birgalikda bildirgan „Evropaga narkotik moddalarning olib kirilishiga va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash“ loyihasi qo'llab-quvvatlandi. Bu kurashda mintaq davlatlari o'zaro hamkorlik qilsalar maqsadga e'rishish mumkinligi aytili.

Evropa Ittifoqi O'zbekistondan demokratiya, davlatchilikda qonun ustivorligi, inson huquqlari va matbuot e'rkinligi, mamlakatda, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili b'olgan bozor iqtisodiyotiga kirish hamda Evropa investitsiyasi va tadbirkorlari uchun qulay sharoit yaratishni davom ettirishni xohlaydi. Evropa-O'zbekiston hamkorlik kengashida noharbiy yadro mollari savdosi to'grisidagi bitim imzolandi. Shu davrgacha O'zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar hamkorlik bitimi asosida olib borilmoqda edi. O'zbekiston tomonidan kelajakdagi munosabatlar ushbu bitim asosida davom e'ttirish istagi ma'lum qilindi.

Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi hamkorlik siyosatini yorituvchi deyarli barcha manbalar rejaviy istak-xohishlar va „quruq va'dalar“ bilan chegaralanib qolganligi sababli biz mazkur maqolani tayyorlashda ba'zi bir qiyinchiliklarga uchradi. 2001 yilning 11 sentabridan keyin ham bu

munosabatlarda juda katta ijobiy o'zgarishlar bo'ldi deb ham ta'kidlay olmaymiz. Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan munosabatlaridagi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini faqatgina 1995 yilga kelib amalga oshira boshladi. Evropa Ittifoqi o'zining siyosiy loyihalarini xavf-xatarni sezgandagina bajarayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, Evropa Ittifoqini sharq tomon kengaytirish natijasida kelajakdagi sharqiy chegaralarda yangi xavf-xatar (narkotik moddalar savdosi, qochoqlarning chegara atrofida ko'plab yig'ilib qolishi, Islom fundamentalizmi)ning mavjud bo'lishi⁶⁹. Bundan tashqari Afg'onistondagi Tolibon harakatining yana „jonlanishi" mumkinligi va bu harakat qo'shni Markaziy Osiyo davlatlariga o'tib „avj" olishi ehtimoli Evropa Ittifoqidan xalqaro siyosatda faol bo'lishni taqozo etmoqda. SHu sababli Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan munosabatlarini yanada yaxshilash, kelajakdagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning oldini olish kabi havfsizlik siyosatini kuchaytirmoqda. Evropa Ittifoqi Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni va salohiyatidan unumli foydalanishi kerak. Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi asosiy manfaaatlaridan biri bu mintaqadagi davlatchilik qurilishi jarayonini qo'llab-quvvatlash va barqarorlikni ta'minlashdir. Evropa Ittifoqining mintaqadagi faoliyati cheklanganligi bu mintaqaga boshqa xalqaro aktyorlar kirib kelishiga sabab bo'lgan. Lekin shunga qaramasdan, ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, Evropa Ittifoqining mintaqadagi dasturlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos ravishda „bo'shliqni to'ldirib turibdi". Ilmiy jihatdan tadqiq etilganda, Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi faoliyatiga ikki xil ta'rif berish mumkin. Birinchidan, Evropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar Markaziy Osiyoga nisbatan o'zlarining munosabatlariga ijobiy baho bersalar, ikkinchidan, Evropa Ittifoqi o'zining yuqori darajadagi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari mavjud bo'lishiga qaramasdan mintaqada dominantlik qila olmayapti. SHu narsa ma'lumki, Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasida hamon bir butun aktyor sifatida ham harakat qila olmayapti. Bugungi kunga qadar Evropa Ittifoqining mintaqada diplomatik vakolatxona maqomida faoliyat ko'rsata oladigan yagona

⁶⁹ Davlat qurilishi va boshqaruvi. Mualliflar jamoasi. - T.: Akademiya, 2007.

vakolatxonasi mavjud e'las. Hozircha Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan "yopiq"ligicha qolmoqda.

Bu o'rinda ta'kidlash joizki, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatning O'zbekiston bilan ikki tomonlama munosabatlari nisbatan faol va samarali bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining mamlakatda demokratik jamiyat asoslarini mustahkamlash va xalqaro maydondagi mavqeini yanada kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosati doirasida xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli ikki tomonlama aloqalari tobora kengayib bormoqda⁷⁰.

Ana shunday hamkor tashkilotlar sirasiga Evropa Ittifoqini ham kiritish mumkin. Zero, mamlakatimiz bilan mazkur tashkilot o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy-insonparvarlik aloqalari hamda mintaqaviy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar ustuvor yo'nalishlardandir. O'zbekiston Respublikasining Evropa Ittifoqi bilan munosabatlarining asosi 1992 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi hukumati va Evropa hamjamiyatlari komissiyasi (EHK) o'rtasida O'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandumning imzolanishi orqali yaratildi. 1994 yil 16 noyabrda tomonlar o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.

1996 yil aprel oyida Evropa Ittifoqi Komissari X.Van den Bruk O'zbekistonga tashrif buyurdi va mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan qabul qilindi. 1996 yil iyun oyida Evropa Ittifoqining Florensiyada bo'lib o'tgan davlat rahbarlari darajasidagi sammiti chog'ida O'zbekiston va Evropa Ittifoqi o'rtasida o'zaro siyosiy muloqot yo'lga qo'yilib, SHerikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi aloqalarining har tamonlama rivojlanishida muhim huquqiy poydevor yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil noyabrda Belgiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida Evropa Hamjamiyatlari Komissari J.Santer va Evroparlament raisi K.Xensh bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

⁷⁰ www.gov.uz // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

2010 yilning 15-16 noyabr kunlari Evropa Ittifoqining taraqqiyot bo'yicha komissari A.Piebalgs rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Tashrif asnosida u Prezident Islom Karimov bilan muzokaralar o'tkazdi.

2011 yil 24 yanvarda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Bryusselga amalga oshirgan rasmiy tashrifi tomonlar o'rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Tashrif chog'ida Evropa Ittifoqi O'zbekiston Respublikasi bilan turli sohalarda teng va o'zaro sheriklikka asoslangan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanini namoyish etdi. Tashrif doirasida Evropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidenti J.M.Barroso va Evropa Ittifoqining energetika bo'yicha komissari G.Ettinger bilan muzokaralar o'tkazildi.

Muzokaralar chog'ida Evropa Hamjamiyatlari komissiyasi rahbari O'zbekistonning dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallagan iqtisodiy o'sish sur'atlariga alohida urg'u berdi. SHuningdek, u 2010 yil 12 noyabrda Prezident Islom Karimov tomonidan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida bayon etilgan "mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" Evropada katta qiziqish bilan qarshi olinganini qayd etdi.

Evropa Ittifoqi O'rta Osiyodagi transchegaraviy daryolarnig suv manbalaridan foydalanish borasida pragmatik yondashuv tarafdori bo'lib, manfaatdor tomonlarning suv va energetika masalalarida o'zaro hamjihatlikda hamkorlik qilish bo'yicha ekologik muvozanatni saqlash hamda transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanishga doir barqaror va oshkora mexanizmlarni ishlab chiqishini qo'llab-quvvatlaydi.

Tashrif davomida O'zbekistonda Evropa Ittifoqi Delegatsiyasini ta'sis etish to'g'risidagi bitim, O'zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi o'rtasida energetika sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum hamda Evropa Ittifoqi komissiyasining 2011-2013 yillarga mo'ljallangan texnik yordam ko'rsatish bo'yicha indikativ loyihalarini amalga oshirish to'g'risidagi memorandum imzolandi.

Tashrif yakunlariga ko'ra aytish mumkinki, u O'zbekiston va Evropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalarning ulkan salohiyatini ochishda keng imkoniyatlar yaratadi hamda ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori texnologiyalarni etkazib berish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va ilmiy-texnikaviy aloqalarni kengaytirish orqali Evropa Ittifoqining mamlakatimizdagi iqtisodiy islohatlar va tizimli o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishga tayyor ekanini ko'rsatadi.

O'zaro munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosi, yuqorida ta'kidlangan ikki tomonlama hujjatlar bilan bir qatorda SHerikchilik va hamkorlik to'g'risidagi hamda Atom energiyasidan tinch maqsadda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni ham o'z ichiga oladi. SHerikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi beshta qo'shma muassasa faoliyat yuritib kelmoqda. YA'ni, Hamkorlik kegashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlamentlararo hamkorlik qo'mitasi, Savdo va investitsiyalar bo'yicha yordamchi qo'mita, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa masalalar bo'yicha yordamchi qo'mita shular jumlasidandir.

Mazkur muassasalarning vazifalari tegishli sohalar bo'yicha munosabatlarning amaldagi holatini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ularni yanada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar va Evropa Ittifoqidagi ichki siyosiy vaziyat bilan bog'liq masalalar, O'rta Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlik qilish, shuningdek, har ikkala tomonning manfaatlariga mos keladigan xalqaro masalalar bo'yicha fikr almashishdan iboratdir. Evropa Ittifoqi O'zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sherigi bo'lib, mamlakatimizning tashqi savdo aloqalarida ikkinchi o'rinni egallaydi. 2010 yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi 1965,0 million AQSH dollarini tashkil etdi. Shu jumladan, eksport - 547,8 million AQSH dollari, import - 1418,0 million AQSH dollaridan iborat bo'ladi. O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2009 yilgi

ko'rsatkich bilan qiyoslaganda, 1,2 foizga o'sdi. SHu bilan birga, ikki tomonlama savdo-sotiqni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjud.

Yurtimizda Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardan kelgan sheriklar ishtirokida 821 korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 612 tasi qo'shma korxona bo'lib, 209 tasi 100 foizlik Evropa mablag'i asosida ish olib borayotir. O'zbekiston Evropa Ittifoqi tomonidan xorijiy mamlakatlar uchun yaratilgan eng ko'p qulaylik tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega davlatlar qatoriga kiradi⁷¹.

Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga ko'maklashish maqsadida Evropa Ittifoqi 1992 yildan buyon respublikamizda Evropa Hamjamiyatlari komissiyasining texnikaviy yordam loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston mazkur hamkorlik doirasida Evropa Ittifoqining chegaralar xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslashtirilgan BOMKA, narkotik moddalarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan KADAP, transport masalalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan TRASEKA, energetika masalalari bo'yicha INOGEYT kabi mintaqaviy dasturlarida, shuningdek, ta'lim yo'nalishidagi TEMPUS va ilmfan yo'nalishidagi Ettinchi doiraviy dasturi kabi ixtisoslashgan loyihalarida faol ishtirok etadi.

Evropa Ittifoqi tashabbusi bilan 2004 yilda tashkil topgan "Evropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo" mintaqalararo muloqoti doirasida tashqi ishlar vazirlari darajasida to'rtta uchrashuv o'tkazildi. Ularda 2007 yil 21 iyunda Bryusselda Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va hukumatlar rahbarlari tomonidan tasdiqlangan "Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: yangi sheriklik strategiyasi" (Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga oid strategiyasi) nomli konseptual hujjatni ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur hujjatning taqdimoti 2007 yil 30 iyun kuni Berlinda o'tkazildi. Shuningdek, Parij va Bryusselda "Evropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo" tashqi ishlar vazirlari darajasidagi forumlar tashkillashtirilib, ularda mintaqalararo hamkorlikka oid dolzarb masalalar muhokama qilindi⁷².

⁷¹ www.gov.uz // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

⁷² www.gov.uz // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

O'zbekistonning geografik joylashuvi va geosiyosiy ahamiyati, barqarorligi hamda so'nggi yillarda erishgan iqtisodiy taraqqiyotining yuqori sur'atini inobatga olgan holda, Evropa Ittifoqi ushbu Strategiyani to'laonli amalga oshirishda mamlakatimizga mintaqadagi ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida qaraydi.

2011-2013 yillar mobaynida Evropa Hamjamiyatlari komissiyasi yurtimiz hamda butun mintaqaga qishloq xo'jaligi va qishloq joylarni, ikki tomonlama savdo-sotiq, kichik va o'rta biznes, energetika, atrof-muhit, fan va ta'lim kabi sohalarni rivojlantirish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, chegaralar va bojxona xavsizligini ta'minlash masalalarini hal etishda ko'mak berishni rejalashtirmoqda.

2011 yil 7 aprel kuni tashqi ishlar vazirlari darajasida Toshkentda o'tkaziladigan "Evropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo" uchrashuvi Evropa Ittifoqi va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqalararo siyosiy muloqotni yanada jadallashtirish va mustahkamlash jarayonida navbatdagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Unda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik bo'yicha yangi strategiyasining bugungi kungacha bo'lgan holati, mintaq davlatlari hamda Evropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning istiqbollari va boshqa bir qator o'zaro manfaatli dolzarb masalalar muhokama etildi.

X U L O S A

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvi uning xalqining asriy orzu-maqсадlarini to'la ma'noda ro'yobga chiqarish tomon keng imkoniyatlar yaratibgina qolmay, ayni paytda yosh davlatimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakatimiz istiqlolning dastlabki davrlaridanoq o'zmilliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lini tanlash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni rivojlantirilishiga katta e'tibor berdi.

Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimiz xavfsizligi, barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ana shu vazifalarning hal etilishiga bohliq bo'lib qolgan edi. Mustaqillikka qadar sobiq sho'ro davrida, ittifoq konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston teng huquqli suveren davlat hisoblanib, mustaqil tashqi siyosat yuritish, xorijiy mamlakatlar bilan shartnomalar tuzish va diplomatik vakolatlarini ayirboshlash va boshqa huquqlarga ega bo'lgan suveren

respublika hisoblanardi. Ammo real hayotda buni aksini ko`rish mumkin edi. O`zbekiston o`zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, etarlicha diplomatik vakillariga ega emas edi. Bu holatlarga sobiq SSSR (Ittifoq) ning parchalanishi bilan barham berildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o`zining «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» va boshqa bir qator asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi.

O`zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biri evropa davlatlari bilan hamkorlik, do`stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Davlat mustaqilligi qaror topgandan keyin O`zbekiston va jahonning nufuzli davlatlaridan biri Fransiya respublikasi bilan diplomatik aloqa o`rnatdi. O`zbekiston-Fransiya o`rtasidagi ko`p tomonlama aloqalarga quyidagi jihatlar asos qilib olingan:

Birinchidan, O`zbekiston va Fransiya o`rtasidagi ko`p tomonlama aloqalarning o`rnatilishi kelgusida evropa mintaqasidagi mamlakatlar bilan yaqin aloqalar o`rnatishga keng yo`l ochadi;

Ikkinchidan, ko`p tomonlama aloqalar sohasiga savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni, sport, turizmni rivojlantirish, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash, turli foydali qazilmalarni qidirish, qazib olish va foydalanish, kichik va o`rta korxonalarni qurish, kadrlar tayyorlashni tashkil etish, muntazam havo yo`llarini ochish sohalarida samarali hamkorlik qilish ko`zda tutilgan.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, magistrlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan quyidagi taklif va mulohazalarni bildirib o`tishni lozim deb hisoblaymiz.

- O`zbekiston va Fransiya aloqalariga bag`ishlangan turli asar va adabiyotlar ko`rgazmasini tashkil etish orqali ikki davlat o`rtasidagi munosabatlarini yanada mustahkamlash;

- O`zbekistonda Fransiyalik investorlar tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan ishlab chiqarish korxonalari tarixiga bag`ishlangan hujjatli filmlar yaratish;

- Ikki mamlakat o'rtasida sayyohlik aloqalarini taraqqiy ettirish uchun tarixiy yodgorliklar, turli arxitektura inshootlari, tabiat manzaralari aks ettirilgan fotoko'rgazmalarni tez – tez tashkil etib turish;

O'zbekiston – Frantsiya aloqalarining huquqiy asoslariga oid hujjatlarni o'rganib chiqib alohida ilmiy maqola, monografiyalar asosida siyosiy – diplomatik munosabatlar tarixini yoritish; - kabilar bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

I. Prezident I. A. Karimov asarlari.

I.1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'zistiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992. 78 b.

I.2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O'zbekiston», 1994. 299 b.

I.3. Karimov I.A. Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. T., «O'zbekiston», 1995. 45 b.

I.4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., «O'zbekiston», 1995. 176 b.

I.5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol,iqtisod,siyosat, mafkura. T.1, T., «O'zbekiston», 1996. 261 b.

I.6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3, T., «O'zbekiston», 1996. 366 b.

I.7. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4, T., «O'zbekiston», 1996. 349 b.

I.8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5, - T., «O‘zbekiston», 1997. 384 b.

I.9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston», 1997. 326 b.

I.10. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O‘zbekiston», 1998. 686 b.

I.11. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., «Sharq», 1998. 31 b.

I.12. Karimov I.A. Ma‘naviy yuksalish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1998. 480 b.

I.13. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T., «O‘zbekiston», 2000. 112 b.

I.14 Karimov I.A Bizning yulimiz - demokratik isloxlarni chukurlashtirish va modernizatsiya jaraenlarini izchil davom ettirish yulidir T., «O‘zbekiston», 2012. 159 b.

I.15 Karimov I.A Mamlakatimizni yanada obod eti shva modernizatsiya kilishni kat‘iyat bilan davom ettirish yulida T., «O‘zbekiston», 2013. 183 b.

I.16 Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yulida xizmat qilish eng oliy saodatdir T., «O‘zbekiston», 2015. 302 b.

II. Asosiy adabiyotlar

II.17. Aliev A. Ma‘naviyat, qadriyat va badiiyat. T., «Akademiya», 2000. 632 b.

II.18. Abdurazzoqova M.A. XXI asr ikkinchi yarmi jahon tarixi. T., «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2000. 272 b.

II.19. Ahmedov e., Saydaminova Z. O‘zbekiston Respublikasi: qisqacha ma‘lumotnoma. T., «O‘zbekiston», 1998. 400 b.

II.20. Azizxo‘jaev A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. T., «SHarq», «Akademiya», 2001. 112 b.

II.21. Gafarli M.S., Kasaev A.CH. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. T., «O‘zbekiston», 2001. 430 b.

II.22. Gulyamov S.S., Ibragimov N.I., Dodobaev YU.T., Xadjaev B.A. Osnovo` diplomaticheskoy deyatelnosti Uzbekistana. T., «YAngi asr avlodi», 2002. 160 s.

II.23. Jo`raev N. Agar ogoh sen... Portretga chizgilar. Siyosiy esse. T., «YOzuvchi», 1998. 272 b.

II.24. Jo`raev N. Yuksalish: Portretga chizgilar. Siyosiy esse. T., «O`zbekiston», 1995. 152 b.

II.25. Jo`raev N. Tarix falsafasi: Tushuncha, mohiyat va siyosat. T., «Ma`naviyat», 1999. 192 b.

II.26. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T., «O`zbekiston», 1996. 396 b.

II.27. Millatlararo munosabatlar madaniyati va baynalmilal dunyoqarash. T., «O`qituvchi», 1992. 135 b. № 7-8.

II.28. Tyurikov V., Shohulomov R. Mustaqil O`zbekiston Respublikasi: Unutilmas voqealar va sanalar (1991-1996). T., «O`zbekiston», 1998. 384 b.

II.29. Tyurikov V., Shohulomov R. Mustaqil O`zbekiston Respublikasi: Unutilmas voqealar va sanalar (1996-1998). K.2. T., «O`zbekiston», 2000. 431b.

II.30. Tyurikov V., SHohulomov R. O`zbekiston Respublikasi: 100 savolga 100 javob. T., «O`qituvchi», 1998. 176 b.

II.31. Yangi O`zbekistonning 7 zafarli yili. T., «SHarq», 1999. 224 b.

II.32. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O`zbekiston», 1992. 46 b.

II.33. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. T., «O`zbekiston», 2001. 591 b.

II.34. O`zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O`zbekiston tarixi. T., «Sharq», 2000. 560 b.

II.35. O`zbekiston tarixi: qisqacha ma`lumotnoma. T., «SHarq», 2000. 400 b.

III. Xorijiy adabiyot.

III.36 Xilda Xukhem Властитель семи звезд Т. “Adolat” 1994-год 320
стр.

IV. foydalanilgan internet sahifalari

IV. 37. www.mfa.uz

IV. 38. www.un.org

IV.39. www.tashkent.unesco.org

IV. 40. www.gov.uz

IV. 41. www.ambafrance-uz.org

IV.42. www.tarix.uz

IV.43. www.samarkandnews.uz